

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI



OTABOYEVA MUAZZAM MANSUR QIZI

5120100 – FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH (O‘ZBEK TILI)

TA‘LIM YO‘NALISHI

BO‘YICHA BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

dots. B.B. RAHIMOVA

**MAVZU: ISAJON SULTON HIKOYALARIDA INSON OBRAZI
TALQINLARI**

Urganch – 2019

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM

VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘zbek adabiyoti kafedrası

**ISAJON SULTON HIKOYALARIDA INSON OBRAZI
TALQINLARI**

Bajaruvchi:

Otaboyeva Muazzam Mansur qizi

Rahbar:

dots. Rahimova Bekposhsha Bahodirovna

Urganch – 2019

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO‘YICHATOPSHIRIQLAR

REJASI:

1. **Talaba:** Otaboyeva Muazzam Mansur qiziga Universitet rektorining «_____»-sonli _____ buyrug‘i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazi talqinlari” mavzusi tasdiqlangan.
2. **Kafedra majlisining qaroriga binoan** dots.Rahimova Bekposhsha Bahodirovna bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
3. **Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:** Kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.
4. **Bitiruv malakaviy ish uchun ma’lumotlar:** O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlaridan, mavzuga oid ilmiy-nazariy manbalardan, maqola va monografiyalardan, matbuot materiallaridan olindi.
5. **Bitiruv malakaviy ishga** _____
_____ **ilova qilinadi.**

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

No	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1	Mavzuni kafedrada tasdiqlatish	2018-yil, sentabr
2	Bitiruv-malakaviy ishini yozish nizomi bilan tanishtirish.	2018- yil, oktabr
3	Mavzu bo'yicha manba yig'ish, tegishli nazariy adabiyotlarni o'rganish	2018-yil, noyabr
4	O'rganilgan adabiyotlarni tahlil qilish	2018- yil, dekabr
5	Yig'ilgan materiallarni tizimlashtirish va qayd eto'cho'chlar tuzish	2019- yil, yanvar
6	Tanlangan mavzuni tadqiq qilishning ilmiy ta'lim usul va metodlarini o'rganish	2019- yil, fevral
7	To'plangan materiallar asosida ishni kirish qismini yozish	2019- yil, fevral
8	Ishning birinchi bobini yozish	2019- yil, fevral
9	Ishning ikkinchi bobini yozish	2019- yil, mart
10	Ishning xulosa qismini yozish	2019- yil, mart
11	Adabiyotlar ro'yxatini yozish	2019- yil, aprel
12	Ishni rahbarga tahrir qilish uchun taqdim qilish	2019- yil, aprel
13	Ishning dastlabki himoyasi	2019- yil, aprel

Bitiruv malakaviy ish rahbari: dots.Rahimova Bekposhsha Bahodirovna

Bajaruvchi talaba: Otaboyeva Muazzam Mansur qizi

2019-yil «_____» _____

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida (2018- yil _____ da)
(« _____ »- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: _____ dots. S.Q.Matkarimova

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO‘YICHA RAHBARNING MULOHAZALARI

Talaba: Otaboyeva Muazzam Mansur qizi

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: “Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazi talqinlari”

Bitiruv malakaviy ish hajmi: _____ sahifa

Tushuntirish qismi: _____ sahifa

Mavzuning dolzarbligi: Keying yillar adabiyotida chinakam ijod qilish, haq soʻzni, haqiqatni aytish erkinligi keng qamrovda rivojlandi. Bu borada oʻzbek nasri, xususan, hikoyachiligida ancha yutuqlarga erishildi. Hikoyanavislar milliy adabiyotning koʻp asrlik tajribasi va jahon adabiyotidagi izlanishlarga tayangan holda yangi-yangi asarlar yaratishmoqda. Ana shunday tajribali hikoyanavislardan biri – Isajon Sultondir.

Isajon Sultonning bugungi oʻzbek hikoyachiligi rivojiga qoʻshayotgan hissasini, asarlarida inson obrazi talqinlarining yetakchiligi, oʻziga xosligini nazarda tutib, uning ijodidagi inson obrazi mavzusining turfa qirralarini yoritishni bitiruv malakaviy ishimizga mavzu qilib tanladik. Bunda uning ijodi haqida ayrim fikrlar bildirgan yuqorida nomlari qayd etilgan adabiyotshunoslar ishlariga tayangan holda, ularga mustaqil qarashlarimizni qoʻllashga harakat qildik, muayyan xulosalarga kelishga intildik.

Isajon Sulton hikoyalarining bugungi adabiy jarayondagi oʻrnini koʻrsatish, hikoyalaridagi mavzu va gʻoya yoʻnalishini belgilash, inson obrazi talqinlari tasvirini oʻrganish va bu xususida muayyan umumlashma xulosalarga kelish tadqiqotimiz dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi.

Bitkazuvchi talaba Otaboyeva Muazzam bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonida o'zbek adabiyoti, xususan, zamonaviy o'zbek adabiyoti bo'yicha yaxshi bilimga ega ekanligini namoyon qilgan. Mavzu yuzasidan bir necha maqolalar e'lon qilgan.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari. Ish talabaning adabiy, ilmiy, tanqidiy asarlar tahliliga ijodiy yondashishi, mustaqil fikrlash qobiliyatidan dalolat bo'lib, ma'qullashga arziydi. Bitkazuvchi mavzuni atroflicha o'rganib, tegishli ilmiy va badiiy adabiyotlardan foydalana olgan. Isajon Sulton hikoyalaridagi inson obrazi talqinlarini yoritishda qator ilmiy adabiyotlardan foydalangan, o'z mustaqil qarashlarini izchil bayon qilgan. O'zining mutaxassisligi bo'yicha fikrlashga layoqatli, yangilikka intiluvchan, tashabbuskor, o'z ustida muntazam ishlaydi. Atrofdagi insonlar bilan muomalasi yaxshi, har bir ishga mas'uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Bitiruv malakaviy ish mavzusini yoritishda talaba analiz, sintez, qiyosiy-analitik metodlardan unumli foydalangan. Ishda talabaning mavzu mohiyatini anglab yetgani, unga to'g'ri yondashib, mavjud fikrlarga ijodiy munosabatda bo'la olgani ham ko'rinib turibdi. Ishning natijalaridan ta'lim sohasida, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi. Otaboyeva Muazzam Mansur qizining "Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazi talqinlari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining bitiruv malakaviy ishlarga qo'yilgan talablariga to'la javob beradi va uni himoyaga tavsiya etish mumkin. Bitiruv malakaviy ishni ochiq himoyaga tavsiya etaman.

2019-yil «__» _____

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti
5120100 - filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchisi

Otaboyeva Muazzam Mansur qizining bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: “Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazi talqinlari”

Malakaviy ishning hajmi: _____ so‘zdan iborat

Tushuntirish qismi varaqlar soni: _____ sahifadan iborat

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi: O‘zbek hikoyachiligi XX asrning 90-yillariga kelib o‘zining rang-barangligi, qamrov ko‘lamining kengligi, shakl va mazmundagi yangi jihatlar bilan mustaqillik davri adabiyotida o‘z o‘rnini egalladi. Hikoya janrining badiiy takomiliga xos belgilardan biri shundan iboratki, yozuvchilarimiz o‘z ijodiy erkinliklari tufayli noan’anaviy ko‘rinishdagi, yangi tipdagi qahramonlarni, o‘ziga xos milliy xarakterlarni adabiyotga olib kirdilar. Ana shunday tamoyillardan kelib chiqqan holda hozirgi adabiy jarayonda o‘zbek hikoyachiligi xususida qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik davri o‘zbek hikoyachiligida inson obrazining botiniy va zohiriy jihatlarini tasvirlash, butun murakkabliklari bilan tasvirlash badiiy adabiyotning asosiy omillaridan biridir. Bugungi adabiy jarayonning faol a’zolaridan biri, mohir hikoyanavis Isajon Sulton Shu bois ham ishning mavzusi dolzarb bo‘lib, berilgan topshiriqqa mosdir.

Bitiruv malakaviy ishning “Kirish” qismi, ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Ishning kirish qismida mavzuning

dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbalari, maqsad va vazifalari, ilmiy-amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va hajmi o'z aksini topgan bo'lib, talablarga to'la javob beradi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar va fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi: Bitiruv malakaviy ishda ilmiy manbalardan o'rinli foydalanilgan. Tadqiqotchi o'z ishida ilmiy-nazariy adabiyotlarga asoslanib ishning mazmunini ochib beradi. Mazkur ishda U.Normatov, A.Rasulov, I.G'afurov, Q.Yo'ldoshev, U.Hamdam, R.Rahmat, H.Zaripov va boshqalarning keyingi davrdagi ilmiy tadqiqot ishlaridan, internet ma'lumotlaridan unumli foydalanilgan.

Ilmiy-uslubiy va texnik-iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv malakaviy ish ravon ilmiy uslubda yozilgan bo'lib, unda uslubiy, imloviy xatolarga deyarli yo'l qo'yilmagan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari: Mazkur bitiruv malakaviy ish talablar darajasida bajarilgan bo'lib, bugungi o'zbek hikoyachiligi haqida batafsil ma'lumot beradi. Ishning birinchi bobida hikoya Isajon Sulton ijodining salmoqli qismi ekanligi, adib hikoyalarida inson ruhiyati tasvirining turfa chizgilari xususidagi qarashlari haqida fikr yuritiladi. Ishning ikkinchi bobida Isajon Sultonning inson obrazini yaratishdagi mahorati haqida batafsil ma'lumot beradi, "Farishta", "Bog'I Eram", "Qismat", "Shamolli kecha" kabi qator hikoyalari tahlilga tortiladi.

Bitiruv malakaviy ishdagi kamchiliklar: Talabaning bitiruv malakaviy ishi boy faktik materialga tayangan holda mustaqil fikrlash asosida yozilgan, mavzuning mohiyati yetarlicha ochib berilgan. Tabiiyki, ishda ayrim nuqsonlar ham mavjud. Jumladan, ishning birinchi bobi ancha cho'zilgan, bayonchilikka yo'l qo'yilgan. Bundan tashqari ishda ayrim jumla g'alizliklari ham mavjud. Isajon Sulton hikoyalarini zamonaviy hikoyanavislar asarlari bilan qiyosan o'rganilsa mavzu mohiyati yanada oydinlashardi. Bu juz'iy yetishmovchiliklar ishning umumiy qimmatini pasaytirmaydi, balki talabani yangicha izlanishlarga undaydi.

Taqrizchi:
va

UrDU akademik litseyning ona tili

adabiyoti fani o‘qituvchisi
D.Matniyozov.

(2019- yil) « ____ » ____

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo‘limlar	Eng yuqori baholash ‘rsakich bo‘limi sobiida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyada ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollar berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo‘yicha ilmiy-nazariy seminarlar konferensiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezislar) e’lon qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Otaboyeva Muazzam Mansur qizining "Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazi talqinlari" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «___» 2019-yil «_____» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan Ball
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amaliyotdagi qoidalariga mosligi	5	

7	Himoyada ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar inferensiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:		100 ball	

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. _____

_____ mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilansin va «_____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2019-yil «_____» _____

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti

“O‘zbek adabiyoti” kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____ sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Otaboyeva Muazzam Mansur qizi

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazi talqinlari

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: Rahimova Bekposhsha Bahodirovna

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2019-yil «_____» _____ da o‘tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Davron Matniyozov tayinlandi.

Kafedra mudiri:

dots. S.Q.Matkarimova

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

dots. D.Q.G'ayipov

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti

O'zbek adabiyoti kafedrası

Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi – 5120100

ta'lim - bakalavr

Tasdiqlayman:

Fakultet dekani

_____dots.D.Q.G'ayipov

“ ____ ” _____201_ y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Otaboyeva Muazzam Mansur qizi

- 1. Ishning mavzusi:** “Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazi talqinlari”
«____»_____201__ yil universitet rektorining_____sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.
- 2. Ishni topshirish muddati:** “ ____ ” _____2019-y.
- 3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati**

a) Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

b) Mirziyoyev Sh. Buyuk kelejagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

v) Isajon Sulton nasri badiiyati. –T.: “Turon zamin ziyo”, 2017, 380 b.

g)Isajon Sulton. Bog'i Eram. –Toshkent, “Sharq”, 2015, 242 b.

d)Isajon Sulton. Oydinbuloq. –Toshkent, G'.G'ulom nashriyoti, 1995.

e)Isajon Sulton. Ozod.Roman va hikoyalar. –Toshkent, “Sharq”, 2012, 367 b.

4.Ishning maqsadi: Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi bugungi o'zbek hikoyachiligining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazi talqinlarining o'ziga xos asosiy xususiyatlarini tahlil etishdan va muayyan xulosalar chiqarishdan iborat.

5. Chizma materiallar ro'yxati:_____

6.Maslahatchilar:_____

	Bo'limlar	Maslahatchi	Imzo, sana	
			Topshiriq	Top
		ISH	rdi	iriq bul qildi
	Kirish	Rahimova B	2018-yil, yal	
	1- bob. Xorazm folklori asalalari Hamdam Abdullayev liqotlarida	Rahimova B	2018-yil, yal	
	2- bob. Xorazmlik mumtoz va zamonaviy adabiyot vakillari ijodi Hamdam Abdullayev	Rahimova B	2019-yil, rt	

	talqinida			
	Xulosa	B. Rahimova	2019-yil, art	
	Foydalangan adabiyotlar	B. Rahimova	2019-yil, rel	

Taqrizchi: UrDU akademik litsey ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi Davron Matniyozov _____

Ilmiy rahbar: dots.v.b. Rahimova Bekposhsha Bahodirovna _____

BMI bajaruvchi talaba: Otaboyeva Muazzam Mansur qizi _____

Kafedra mudiri: dots. Matkarimova Salomat Qo‘ziyevna _____

MAVZU: Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazi

Talqinlari

REJA:

KIRISH. Mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari.....

I BOB. HOZIRGI O‘ZBEK NASRIDA ISAJON SULTONNING O‘RNI

1.1. Hikoya - Isajon Sulton ijodida yetakchi janr sifatida.....

1.2. Adib hikoyalarida inson ruhiyati tasvirining turfa chizgilari

II BOB. ISAJON SULTONNING INSON OBRAZINI YARATISHDAGI MAHORATI

2.1. Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazi talqinlarining o‘ziga xosligi (ota, ona, farzand obrazlari tahlili misolida)

2.2. Adibning hikoyalarda ramziy obrazlar orqali inson xarakterini tasvirlash mahorati

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik millatimiz hayotida mavjud bo'lgan ma'naviy-axloqiy muammolarga har qachongidan ko'ra ham diqqat-e'tibor kuchaydi. Istiqlol mafkurasi xalq va jamiyat hayotiga chuqur singib borayotganligining o'ziyoq bu fikrni isbotlaydi. Birinchi prezidentimiz alohida ta'kidlaganidek: «Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zboshimchalikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha, qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi»¹. Qayd qilinganidek, ma'naviyatsiz inson tafakkurini, jamiyat taraqqiyotini tasavvur etish mumkin emasligi ayon bo'lmoqda.

Ijod erkinligining berilishi barcha ijod ahlining sof ilhom va ko'ngil amri bilan, mafkuradan yiroq holda ijod qilishiga zamin yaratdi. Istiqlol yillarida adabiyotda ona yurt mavzusidagi asarlar salmog'i ancha ortdi. Ayniqsa, bu asarlarning mazmun-mundarijasini yoritish, ularda ko'tarilgan muammolarni atroflicha o'rganish, eng avvalo, jahon adabiyotining uzviy bir qismi bo'lmish o'zbek she'riyatidagi yangilanishlar, uning g'oyaviy-badiiy evolyusiyasi hamda shakl va mazmundagi

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: «Маънавият», 2008. 116-бет.

evrilishlari mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi: «Nega deganda, adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz CHO'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q»².

Bugungi kunda globallashuv jarayonida ma'naviy qadriyatlarning hayotiy zarurati oshib bormoqda. Mamlakatimiz milliy mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin, barcha sohalarda bo'lgani kabi, badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikda ham jiddiy evrilishlar, o'zgarishlar yuzaga keldi. Haqiqatdan ham, hayotdagi har bir o'zgarish inson tafakkuriga chambarchas bog'liqdir. Inson tafakkurida o'zgarishlar bo'lmas ekan, jamiyatda ham hech qanday o'zgarish bo'lmaydi, chunki inson tafakkuridagi o'zgarish davr va jamiyatdagi o'zgarish bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun bugungi adabiy jarayonda voqea hodisalar emas, insonning o'zi, uning o'y fikrlari, alamlari, iztiroblari, ruhiy olami yetakchilik qilayotganligini adabiy jarayonda vujudga kelayotgan badiiy asarlar tasviri misolida isbotlash mumkin. Istiqlol adabiy jarayonida inson taqdirini badiiy-falsafiy tarzda tadqiq etish an'anasi yuksalib borayotganligi bu davr adabiyotining eng akterli xususiyatidir. Hozirgi adabiy jarayondagi turfa xil mushohadalar asosida yuzaga chiqayotgan adabiy tanqidiy qarashlar zamirida badiiy adabiyotga ma'lum bir mezonlar asosida emas, badiiyat nuqtai nazaridan baho berish an'anasi kuchaydi. "Milliy tafakkuridagi tub yangilanishlar adabiy hodisalarni qayta idrok etish va uni ijtimoiy ongning bugungi darajasiga muvofiq adabiyotshunoslik ilminig taraflari asosida baholash zaruriyatini taqozo etadi. Badiiy asarga, adabiy jarayonga baho berishda filolog olimlar o'rtasida shu vaqtga qadar ham umumiy bir ilmiy to'xtam mavjud emas. Haqiqatan, adabiyot va davr munosabatini to'g'ri aniqlash oson bo'lmaydi.

Dunyo xalqlari adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, inson akteridagi va jamiyatdagi o'zgarish hamda evrilishlarni asrlar davomida badiiy talqin etganligini kuzatamiz. Shu ma'noda istiqlolga erishish jarayoni ham murakkab kechganligi natijasida, yillar davomida erk va ozodlikni ijodkorlarimiz tarannum etganligi ham

² Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи. 2017. 4 авг.

bejiz emas. Mustaqillik yillariga kelib, esa adabiyotimiz turfa xil shakl va ohanglarda o'z aksini topmoqda. Keying yillar adabiyotida chinakam ijod qilish, haq so'zni, haqiqatni aytish erkinligi keng qamrovda rivojlandi. Bu borada o'zbek nasri, xususan, hikoyachiligida ancha yutuqlarga erishildi. Hikoyanavislar milliy adabiyotning ko'p asrlik tajribasi va jahon adabiyotidagi izlanishlarga tayangan holda yangi-yangi asarlar yaratishmoqda. Ana shunday tajribali hikoyanavislardan biri – Isajon Sulton. Isajon Sulton adabiyot maydoniga istiqlol yillarida birin-ketin kirib kelgan yorqin iste'dod sohiblari – Nazar Eshonqul, Abduqayum Yo'ldosh, Nabi Jaloliddin, Ulug'bek Hamdam, Zulfiya Qurolboy qizi, Qo'chqor Norqobil kabi milliy adabiyotimizning, aniqrog'i, nasrimizning kenja avlodiga mansub. "Oydinbuloq", "Munojat" singari ilk kitoblari bilanoq Isajon Sulton kitobxonlar nazariga tushdi. Isajon Sulton ijodi, bir tomondan, o'zbek realistik nasr an'analariidan, ikkinchi tomondan, jahon badiiy prozasi tajribalaridan oziqlanadi va ularni milliy zaminda mahorat bilan uyg'unlashtira oladi.

Isajon Sulton istiqlol yillaridagi badiiy ijodda o'z o'rniga ega bo'ldi, adabiy-ilmij jamoatchilik nazariga tushdi, hikoyalaridan namunalar "XX asr o'zbek hikoyachiligi antalogiyasi"ga kiritildi. Shu bilan birga, S.Vafo ijodi adabiyotshunoslikda o'zining to'la bahosini olgani yo'q. To'g'ri, uning hikoya va romanlari xususida A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, I.G'afurov, R.Rahmat, G.Sattorova, M.Qo'chqorova, P.Kenjayevalarning ayrim maqola, muxtasar fikr va qaydlari mavjud. Ularda, asosan, adibaning hozirgi nasrdagi o'rni, asarlarining umumij tavsifi ko'proq bayon etiladi. Vaholanki, Isajon Sulton hikoya, qissa va romanlari mavzu, ifoda va tasvir jihatdan o'ziga xos bo'lib, ularning boshqalarga deyarlik o'xshamagan jihatlari ham yo'q emas. Buni xususan asardagi obraz yaratish, ruhiy-psixologik talqin, sujet qurilishi, badiiy tildan foydalanishdagi yangicha yondoshuvlarda ko'ramiz. Bu jihatdan, ayniqsa, ikki xil uslubda yozilgan, turli mavzudagi romanlari xarakterlidir.

Istiqlol yillarida Isajon Sulton hikoya janrida ancha tajriba orttirdi. Adibning "Qismat" hikoyasi AQSHning CHikago shahrida o'tkazilgan xalqaro adabij tanlov g'olibi bo'lgan va 2011 yilda jahonning o'nta etuk hikochsi qatoridan o'rin olgan. Biz Isajon Sultonning bugungi o'zbek hikoyachiligi rivojiga qo'shayotgan hissasini,

asarlarida inson obrazi talqinlarining yetakchiligi, o'ziga xosligini nazarda tutib, uning ijodidagi inson obrazi mavzusining turfa qirralarini yoritishni bitiruv malakaviy ishimizga mavzu qilib tanladik. Bunda uning ijodi haqida ayrim fikrlar bildirgan yuqorida nomlari qayd etilgan adabiyotshunoslar ishlariga tayangan holda, ularga mustaqil qarashlarimizni qo'llashga harakat qildik, muayyan xulosalarga kelishga intildik. Isajon Sulton hikoyalarining bugungi adabiy jarayondagi o'rnini ko'rsatish, hikoyalaridagi mavzu va g'oya yo'nalishini belgilash, inson obrazi talqinlari tasvirini o'rganish va bu xususida muayyan umumlashma xulosalarga kelish tadqiqotimiz dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek hikoyachiligi XX asrning 90-yillariga kelib o'zining rang-barangligi, qamrov ko'lamining kengligi, shakl va mazmundagi yangi jihatlar bilan mustaqillik davri adabiyotida o'z o'rnini egalladi. Hikoya janrining badiiy takomiliga xos belgilardan biri shundan iboratki, yozuvchilarimiz o'z ijodiy erkinliklari tufayli noan'anaviy ko'rinishdagi, yangi tipdagi qahramonlarni, o'ziga xos milliy xarakterlarni adabiyotga olib kirdilar. Ana shunday tamoyillardan kelib chiqqan holda hozirgi adabiy jarayonda o'zbek hikoyachiligi xususida qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Isajon Sulton nasri, jumladan, hikoyalari xususida ham qator tadqiqotlar yaratildi. U.Normatov³, A.Rasulov⁴, I.G'afurov⁵, Q.Yo'ldoshev⁶, U.Hamdam⁷, R.Rahmat⁸, H.Zaripov va boshqalarning tadqiqotlarida Isajon Sulton asarlari tahlilga tortiladi. "Isajon Sulton nasri badiiyati" kitobi ana shu tadqiqotlar samarasi o'laroq maydonga keldi⁹. Tadqiqotlarda Isajon Sulton nasrining o'ziga xos xususiyatlari, hikoyalardagi inson obrazining yangicha tamoyillari, modern yo'nalishdagi hikoyalarning o'ziga xos jihatlari xususidagi tadqiqotlari mavzuni to'laroq yoritishga xizmat qiladi.

³ Норматов У. Етуклик жозибаси // Исажон Султон насри бадиияти. –Тошкент. "Турон замин зиё", 2017. Б.10.

⁴ Расулов А. Шафоат ёғдусидан бахрамандлик // Шарқ юлдузи, 1991, 10-сон

⁵ Гафуров И. Ёзувчи, табиат, табиёт // Исажон Султон насри бадиияти. –Тошкент. "Турон замин зиё", 2017.19 б.

⁶ Йўлдошев Қ. Роман ва бугунги ўзбек романчилиги// Шарқ юлдузи, 2011, 4-сон. Б. 131.

⁷ Улуғбек Ҳамдам. Ойдинбулоқ ойдинлиги // Бадий тафаккур тадрижи. – Тошкент. "Янги аср авлоди", 2002. Б. 184.

⁸ Р.Раҳмат. "Муножот"дан "Бокий дарбадар"гача // Султон И. Бокий дарбадар. Тошкент.2011.Б.267.

⁹ Исажон Султон насри бадиияти. –Тошкент. "Турон замин зиё", 2017. 383 б.

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi – bugungi o‘zbek hikoyachiligining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazi talqinlarining o‘ziga xos asosiy xususiyatlarini tahlil etishdan va muayyan xulosalar chiqarishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari maqsadga erishishga qaratilgan bo‘lib, asosan quyidagilardan iborat:

- Isajon Sultonning hikoyachiligining o‘zbek nasridagi o‘rnini o‘rganish;
- Isajon Sulton hikoyachiligining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish;
- Adib hikoyalarida inson ruhiyati tasvirining turfa talqinlarini aniqlash;
- “Eru osmon oralig‘ida” turkumidagi hikoyalarda inson obrazi talqinlarining o‘ziga xosligini aniqlash;
- “Bo‘ri”, “YOqimli yomg‘ir sadosi”, “SHamolli kecha” hikoyalarida inson obrazining ramziy talqinlarini ko‘rsatish.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini birinchi Prezidentimiz I. A.Karimov va YUrtboshimiz SH.M.Mirziyoevning ma’naviyat va uning uzviy tarmog‘i bo‘lgan badiiy adabiyot borasidagi ko‘rsatmalari, shuningdek, o‘zbek adabiyotshunos olimlarining adabiy-tanqidiy qarashlar masalalariga bag‘ishlangan asarlaridagi nazariy xulosalar tashkil qiladi. Ayni chog‘da Matyoqub Qo‘shjonov ijodi bilan bevosita shug‘ullangan munaqqidlar I. G‘afurov U.Normatov, A.Rasulov, Q.Yo‘ldoshev, U.Hamdami, R.Rahmat, H.Zaripov va boshqalarning ilmiy-nazariy qarashlariga tayanildi.

Tadqiqot manbalari. Bitiruv malakaviy ishimizda Isajon Sultonning “Munojat” (1990), “Oydinbuloq” (1995), “Bog‘i Eram” (2015), to‘plamlari asosiy tadqiqot manbasi bo‘lib xizmat qildi. SHu bilan birga 2017 yilda nashr qilingan “Isajon Sulton nasri badiiyati” kitobi ham asosiy tadqiqot manbasi sifatida olindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan va materiallaridan oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari, o‘rta maxsus ta‘lim tizimlari - kasb-hunar kollejlari hamda akademik litseylar uchun maxsus kurslar o‘qishda, seminarlar o‘tkazishda foydalanish mumkin.

Ishning hajmi. Bitiruv malakaviy ishimiz an’anaviy kirish, ikki mustaqil bob,

to'rt fasl, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy hajmi _____ sahifani tashkil etadi.

I BOB. HOZIRGI O'ZBEK NASRIDA ISAJON SULTONNING O'RNI

1.1. Hikoya - Isajon Sulton ijodida yetakchi janr sifatida

Bugungi o'zbek nasrining yetakchi janrlaridan biri bo'lgan- hikoya janrining imkoniyatlari nihoyatda keng. Hikoya uchun voqeani quruqdan quruq so'zlab berish emas, balki obrazlar, ramzlar, badiiy detallar vositasi xarakter yaratish muhimdir. Badiiy asarlarning bosh qahramonlari, odatda, oliy hilqat bo'lgan – Inson obrazidir. Inson cheksiz koinotga hayrat bilan qaraydi, muhabbatdan mast yuradi, hiyonatdan azob chekadi, tirikchilik tashvishlariga ko'miladi, hayot va o'lim mohiyatiga yetishni istaydi. Badiiy adabiyotda inson tabiati va ruhiyatiga tegishli bunday azaliy hamda adabiy kayfiyat mavzulari hikoyada mo'jizaviy tarzda, o'ziga xos ravishda aks ettirilishi lozim. Hikoya inson tafakkuriga bir zarb bilan tezda muhrlanadigan, go'zal poetik shakl ko'rinishiga ega adabiy hodisa sanaladi.

O'zbek hikoyachiligi bugunga qadar bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Hozirgi o'zbek hikoyachiligining ikki xil yo'nalishda rivojlanayotganini kuzatish mumkin: an'anaviy realistik hamda noan'anaviy modernistik. Zamonaviy o'zbek yozuvchilari hikoya janrini ham ustoz o'zbek hikoyanavislarining, shu bilan birga, klassik jahon hikoyachiligi tajribalari bilan ramziy-majoziy obrazlar va uslub jihatdan g'arb adabiyotiga xos modernistik shakl va usullardan keng foydalanishib,

hikoyachilikda yangicha, badiiy-estetik yangilanishlar yasashmoqda. Ularda qahramon ruhiyatiga yanada chuqurroq kirish, badiiy psixologizmning yangicha tasviriy vositalari bo'lgan adabiy tasvirlar, yangicha ramziy psixologik timsollar yaratish, xatto yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan badiiy-romantik to'qima obrazlar talqini ham uchraydi. Hozirgi hikoyalarning avvalo g'oya, mavzu, shakliy-uslubiy va individuallik jihatdan rang-barangligi e'tiborni tortadi. Ular zamonaviy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, oilaviy-maishiy, sarguzasht-detektiv, ishqiy mavzulardagi realistik, romantik, yumoristik va modernistik yo'nalishdagi turli saviyada yaratilgan asarlar bo'lib, bugungi hikoyachilikda kechayotgan yangilanishlarni mujassamlashtiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'zbek milliy adabiy tafakkuri hech qachon hozirgi davrdagidek o'zining tarixiy ildizlari va an'alarini shu qadar teran, ijodiy o'zlashtirmagan va jahonning ilg'or badiiy tajribalari va ta'sirlaridan ko'lamli miqyosda bahramand bo'lmagan va ko'p ohanglik kasb etmagan edi. Bu esa ijod jarayonida ko'p qirralilikni, badiiy asar tuzilishida, janrlar tarkibida qorishqlik (sinkretik) xususiyatini yanada kuchaytirdi. Bunday holatlar o'z navbatida badiiy ijodda tajriba qilish, sinab ko'rish, yangicha yo'llardan yurish va betakrorlikka intilish imkoniyatini kengaytirdi. Bu tezkor evrilishlar uslubiy yo'nalishlar mohiyatini anglash va baholashda ham turlicha qarashlarni yuzaga keltirdi. Jumladan, "poetik tafakkurda ko'proq hozirgi zamonaviy uslubiy yo'nalishlarga urg'u berilib, unda realizm, simbolizm, modernizm va postmodernizm oqimlari mavjud deb hisoblanmoqda"¹⁰.

Avvalo istiqlol xalqimiz hayotida mutlaqo yangi davrni – chinakam erkin va ozodlik pallasini boshlab berganini ta'kidlash joiz. Bu davr ma'naviy jabhaga, badiiy ijodga o'zgacha mazmun, tub sifat o'zgarish va yangilanishlar bag'ishlamoqda. Bu hol ijod erkinligi, yangicha adabiy tamoyillarga keng yo'l ochib berilganida va insonni badiiy tadqiq etish imkoniyati kengayib borishida namoyon bo'lmoqda. Darhaqiqat, adabiyotshunos U.Normatov ta'kidlaganidek, "hayot hodisalarini, inson shaxsi jumboqlarini realizm zaminida ilohiy-ruhoniylar qarashlar jo'rligida badiiy tahlil – tadqiq etishga urinishlar, inson qalbini davlat, tuzum, ijtimoiyot, mafkura, hatto din,

¹⁰ Ro'zimuhammad B. Postmodernizm-unutilgan eskilikmi?//gaz.Intellekt.2008.17 yanvar.

siyosatga bo'ysunmaydigan g'aroyib jihatlarini talqin etishda o'zgacha tamoyillar ko'rinmoqda.”¹¹ Bu tamoyillarning mushtarak nuqtasi shundaki, ularda o'zligini anglashga, insonning sha'nini saqlashda va ezgulikka intiluvchi shaxs timsolini badiiy idrok etish etakchilik qilayotir. Shu bois hikoyalarda ham millat kishisining ruhiyati, hissiyoti, ko'ngil olami yaxlit tarzda butun murakkabligi bilan tadqiq qilina boshlandi, adabiy qahramon o'zining notekis hayot yo'li, intilishi va ruhiyat kechinmalari bilan tobora o'ziga xos va betakror bo'lib bormoqda. Adabiy qahramon talqiniga yangi yondashuvlar, bir tomondan, milliy adabiyot tajribalarini yanada boyitish, ikkinchi tomondan, jahon ilg'or an'alarini ijodiy o'zlashtirish sintezi sifatidagi hodisadir. Albatta, bu hodisaning miqyos va darajasi hamda originallik xarakteri konkret asarlar tahlilida oydinlashadi. Ammo, muhimi shundaki, hozirgi hikoyachilikdagi qahramon obrazini yaratishdagi yutuqlar realizm imkoniyatlari natijasidir.

Bugungi hikoyanavisligimizning badiiy tafakkurining yangicha evrilishlarga ega bo'lib, yangi yo'nalishlardagi tadqiqotlarga arziydi. Sobiq sho'rolar davri o'zbek adabiyotida badiiy asarlar „hayotni real aks ettirish“ shiori ostida yuzlab roman, qissa, hikoyalar yaratildi. Shuningdek, adabiyotshunoslar ham, mazkur asarlardan asaosan, real hayot, sho'ro mafkurasi g'oyalarini, ideal qahramon obrazini izlash bilan ovora bo'ldilar. Biroq hammaga ma'lumki, haqiqiy adabiyot real hayotdan shunchaki nusxa ko'chirishdan iborat emas. Unda yozuvchining yuksak badiiy tafakkuri, romantik xayoloti, orginal badiiy to'qimasi, badiiy estetik ideali, muallif dunyoqarashi aks etmog'i lozim. Shu ma'noda, hozirgi o'zbek hikoyachiligida qalam tebratayotgan yosh iste'dod sohiblarini ijodini kuzatish, ular qahramonlarining ruhiyat qirralarini kashf etish, inson xarakteridagi o'ziga xos evrilishlarni tadqiq etish, bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Istiqlol va arafasida yaratilgan bir qator hikoyalarda hayot va inson muammolari bilan uzviylikda shaxs ruhiyatidagi o'zgarishlar badiiy talqin etilgan. Turfa xil mavzudagi hikoyalarda inson ruhiyatini yoritishga e'tibor qaratilgan. Bu davr adabiyotida Odil Yoqubov, Tog'ay Murod, Erkin A'zam, Ahmad A'zam, Shoyim Bo'tayev, Abduqayum Yo'ldoshev, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam,

¹¹ Normatov U.Umidbaxsh tamoyillar.-Toshkent.Ma'naviyat.2000.B.20.

Salomat Vafo kabi ijodkorlar yaratgan badiiy asarlarda muhit va shaxs o'rtasidagi ziddiyatlar bilan inson botiniy olamidagi qarama-qarshiliklar talqin etilgan. Istiqlol davri hikoyalari yangi ohanglar hisobiga boyidi. Uning ifoda tarzi jahonning ilg'or an'analarini o'zlashtirishi va milliy adabiyot tajribalarini davom ettirishi natijasida o'zgacha usullar sintezini barqarorlashtirdi. Ifodaning qabariqligi, tasvirning serqatlamligi, mazmun, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi bilan insonni badiiy tadqiq etishga an'anaviy usullar (bayon, ifoda etish, ko'rsatish, tasvirlash)ning o'z o'rnini bo'shatib berayotganligi bilan alohidalik kasb etadi. Bugungi kundagi o'zbek nasrining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shayotgan iste'dodli ijodkorlardan biri Isajon Sultondir. Adibning asarlari o'ziga xos badiiyati bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan yozuvchi hikoyalaridagi o'ziga xos badiiy talqin va falsafiylik haqida so'z yuritiladi.

Insonni anglash, inson shaxsini tahlil va talqin etishda bizda uzoq yillar ustivor bo'lgan ijtimoiy-axloqiy yondashish an'anasi davom etgani holda, XX asr jahon adabiyotida keng tarqalgan estetik falsafiy oqimlar tajribalariga astoydil qiziqish, qolaversa, sharq adabiyotining buyuk merosi diniy-islomiy aqidalar, tasavvuf falsafasi va estetikasiga qaytish zamonaviy hikoyachilikda o'z samarasini bermoqda. Adabiyotshunos U. Normatov qayd qilganidek: "So'nggi yillardagi bizdagi adabiy jarayonga xos eng muhim xususiyatlardan biri shundaki, adabiyotimiz chinakamga xilma-xil bo'lib borayapti... bizda ham falsafiy asosi jihatidan xilma-xil yo'nalishga mansub asarlar paydo bo'la boshladi"¹². Shu nuqtai nazardan Isajon Sulton ijodida ham bu xususiyatni bevosita kuzatishimiz mumkin.

Isajon Sultoninigi "Sog'inch", "Do'st", "Qismat", "Oydin buloq" hikoyalarida ham istiqlol davr adabiy jarayonning tarkibidan o'rin olgan hikoya janridagi poetik o'zgarishlarni kuzatamiz. "Sog'inch" hikoyasida tabiat tasviri bilan bog'liq holda inson ruhiyatidagi evrilishlarni tasvirlaydi. Adibning yuqorida qayd qilgan hikoyalarida polifonik tasvir xususiyatari ham mujassamlashgan. Uning hikoyalarida shamolning esishida ham o'zgacha bir ma'no mavjuddir. Hikoyadagi musicha

¹² Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T., "Ma'naviyat", 2000. 4-5-betlar.

obrazida ham ma'lum bir ma'no mavjud bo'lib, insonning beg'uborligi hayot yo'lidagi ziddiyatlarni ko'rishimiz mumkin. "Oydin buloq" hikoyasida esa bolalik xotiralarining beg'uborligi, inson qalbidan chuqur iz olgan yoshlik hayotining go'zalliklari haqidagi tuyg'ular insonni hech qachon tark etmasligiga ishonch hosil qiladi.

Isajon Sulton barcha asarlarida inson va tabiat bir-biridan ajralmas, ular koinot cheksizliklarida yaxlit va bir butunlikni tashkil etadi, borliq bu – yaxlitlik, demoqchi bo'ladi. Inson borliqda benihoya nozik a'zo, nozik hujayralardan bino bo'lgan. Samoning cheksizligi uni qo'rqitadi. Qo'rqinch butun vujudi, hissiyotlari, kechinmalari, fikrlash tarzlarini qamrab oladi. Uni faqat aql va jon muhofaza qiladi. Har qanday balo-qazo, ofatlardan saqlaydi. "Qo'riqchi", "SHamolli kecha", "Mansub-1984", "Sog'inch", "Ozor", "Farishta", "Xazinabon", "Sofiya", "Suvdagi kosa", "Atomlar muzeyida", "Qismat", "Bog'i Eram hikoyalari", barcha qissalari va romanlarida inson va to'fon, qo'rquv va umid, zarurat va adolat badiiy tasvir makonlariga tortiladi. Va bunda shoironalik nasr bilan, nasr shoironalik bilan og'ushta keladi. YOzuvchi ko'proq bolalik zehniga mustahkam o'rnamashgan taassurotlar, kechinmalar, fikr shu'lalari ustida sermanzara kartinalar chizadi. "Har guvalak qismatdan darak" deb, narsa-ashyolar, kimsalar, voqealar, qismatlarning tanazzullarini qalamga tortib boradi. Uning butun ijodiy ongini "Bil va unutm" degan sodda, ammo inson uchun behad qimmatli so'zlar boshqarayotgandek tuyuladi. Ilm-fanga ma'lum narsalar shoirona qobiqqa solib aytilayotganga o'xshaydi.

Tasvir jozibasi Isajon Sulton hikoyalarida juda mohirona beriladi. "Uning teranliklarida hayot va haqiqat jozibasi yotgandagina qudratli badiiyat hodisasiga aylanadi. Isajon Sulton yozuvchi sifatida shu yo'sin va yo'nalishni mahkam tutgan va o'z tanlagan badiiyat yo'lidan shiddat bilan odimlamoqda. Odamlar endilikda hech narsadan hayratlanmay qo'ydi. Ularni hayratga solish juda qiyin. O'yin mashg'ulotlari behad ko'paygan va bu urchigan o'yinlar butun xayollarini band etgan. Ammo kuch va ezgulik barcha zamonlarda ham kechinmalar kalavasi va pildirog'i bo'lmish insonni hanuz hayratga soladi. "Aqlga yuz hayrat ul oyning ichu toshindadur"... Navoiy yaratilish va yaralish naqshlaridan hayrat inson, ya'ni demak, aql uchun tugamaydi, Masihni ham yuz hayratga solgan narsa shu – Yaratgan va uning yaralmishlari, deydi.

Bizga hozir ma'lum bo'lgan narsadan ertaga hayratomuz hodisalar bunyod bo'ladi. Va mangu hayotning charxpalagi hech qachon yangilik va kashfiyotlar qilishdan to'xtamaydi"¹³.

Adabiy jarayonda Isajon Sulton hikoyalarini modernizm, postmodernizm nuqtai nazaridan tahlil qilinganligini kuzatamiz. Keyingi yillar o'zbek adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri shuki, unda turli falsafiy –badiiy tamoyillarga asoslangan yo'nalish va uslublar, inson botiniy olami, aqli va ruhiyatini, ong-idrokdan xoli kechinmalarini noan'anaviy tasvirlash kuchayib bormoqda. Bu jihatdan modernistik yo'nalish asosida yaratilayotgan asarlar alohida qiziqish uyg'otayotir.

Modernizm adabiy oqimi haqida istiqlol davri adabiy jarayonida bir qator fikrlar bayon etilgan. Uning o'ziga xos tasvir usuli, talqin jarayonidagi badiiyat mezonlari haqida qarashlar ham turfa xildir. Bu adabiy oqim haqida so'z yuritgan adabiyotshunos H. Boltaboev shunday yozadi: "Hozirgi adabiy davralarda urf bo'lgan "modern" so'zining adabiy mohiyati haqida so'z yuritganda bizning sh'eriyatga g'arbdan yuqqan "epidemiya" debgina qarash nafaqat mantiqiy xatoga yo'l qo'yish, balki o'zbek she'rining bugungi mushohada tabiati va yangi shakllar ilinjidagi izlanishlarini imkon etish hamdir"¹⁴. Keyingi yillar o'zbek she'riyati va nasrda ham modernizm adabiy oqimining o'ziga xos tarzda ta'sirini kuzatamiz. An'analar bilan bir qatorda, noan'anaviy asarlarning shakllanishida va yaratilishida bu adabiy oqimning sezilarli ta'siri mavjud. Nasrda Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton kabi bir qator ijodkorlarni ijodida modernizm adabiy oqimining o'ziga xos ta'siri kuzatilsa, she'riyatda A. Qutbiddin, B. Ro'zimuhammad, Go'zal Begim, Xosiyat Rustamova kabi o'nlab ijodkorlarning she'riyatiga ta'sirini ham ko'rishimiz mumkin. "Modern oqimi adabiyot va san'at uslubi sifatida insonni o'rab turuvchi muhitni bezatishga, unga oro berishga harakat qiladi; hayotdagi jarayonlarni, mayda-chuyda ko'rinishlargacha tomosha, spektakllarga aylantirishga, rang-barang til, fikr bezaklari bilan o'rab-burkab, badiiy matnni murakkablashga

¹³ Гафуров И. Ёзувчи, табиат, табиёт // Исажон Султон насри бадиияти. –Тошкент. "Турон замин зиё", 2017.19 б.

¹⁴ Boltaboyev H. Istiqlol imkoniyatlari: yangilangan an'analar va postmodernizm. Qarang: mustaqillik davri adabiyoti. –T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 238-bet.

intiladi. Buning sabablaridan biri G'arb jamiyatida yuksak ideallarning qadrsizlanishi va insonning huzur halovatsiz, bir zaildagi ma'nosiz hayoti, ruhiyatidagi parokandalik edi"¹⁵. Adabiy jarayondagi har bir yo'nalish ko'proq o'zi ommalashgan davr ruhi, ijtimoiy hayotning butun rang-barang kayfiyati ifodasi uchun mos keladi. Xususan, postmodernizm 90-yillar ijtimoiy hayotida ijodkor e'tiborini tortgan bo'lsa, postmodernizm bugungi kun kishilari ruhiyatini belgilaydi. Yozuvchi va adabiyotshunos U. Hamdamov hayotni badiiy talqin etish jarayoni haqida so'z yuritarkan quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: "Har qanday metodda yozilgan asarning uzoqroq umr ko'rishining sharti, fikri ojizicha, uning zamin bilan, undagi real hayot bilan, odamlarning taqdiri bilan qay darajada bog'langanligidadir. Ya'ni, asar – xoh u realistik, xoh u modernistik va hatto u xoh fantastik ruhda bo'lsin, o'z botinida shunday bir tuynik yashirgan bo'lishi kerakki, shu tuynik orqali biz o'z qiyofamizga, qalbimizga, qismatimizga nigoh tashlay olaylik"¹⁶.

Ammo o'tgan davr mobaynida postmodernizm borasidagi qarashlar xilma-xilligi, asosan, uning milliy adabiyotimiz namunalarida bor yo yo'qligi masalasi bilan cheklanadi. Mutaxassislarning aksariyat chiqishlarida postmodernizmni o'zbek mentalitetiga yod hodisa sifatida talqin etish, bu yo'nalishni sharhlash yoki uni tasdiqlash va shakl xususiyatlariga mahiyolik ustuvor ekani kuzatiladi. Aslida, o'zbek postmodernizmi ham, xuddi G'arbdagi kabi o'zining ijtimoiy-ruhiy asoslariga ega estetik hodisa bo'lib, uning ortida 80-yillar oxiri 90-yillar avvalida mintaqamizda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning kayfiyati yashiringan edi. "O'zbek postmodernizmining "qaynagan" vaqti 90-yillarga to'g'ri keladi. Bunga sabab ijodkorlarni birlashtirgan bir xil kayfiyat va shu kayfiyatni ta'minlab turgan "o'tish davri" edi. Nazar Eshonqul, Isajon Sulton va Ulug'bek Hamdamning qissa va hikoyalari yaqin o'tgan tarixning butun kayfiyatini akslantiradi, axir. Chunki bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga o'tish xalqimizning iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayotida jiddiy qiyinchiliklar bilan amalga oshgani hech kimga sir emas. Shu ma'noda 90-yillar adabiy jarayonida bilibmi yo bilmay postmodernizm bayrog'i ostida

¹⁵ Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti. Maqolalar to'plami. –T., "Mumtoz so'z", 2012. 18-19-betlar.

¹⁶ U. Hamdamov. Turfa ranglar uyg'unligi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, 2000. 29-sentabr. 2-bet.

birlashgan ijodkorlar avlodini bir xil kayfiyat umumlashtirib turardi”¹⁷. Lekin unga “sof”, “ijtimoiylikdan holi” san’at sifatida qaraldi, uning ortidagi kayfiyat unutildi. O’tgan davr mobaynida nasr taraqqiyotida turfa xil o’zgarishlar yuzaga keldi: “... psixologik holatlarning eng teran qatlamlarda ro’y beradigan oniy o’zgarishlar, ruhiy po’rtanalar qay tarzda xatga aylanadi, uning texnikasi qanday sirliligicha qolaveradi, shu bois tafakkurning oniy lahzalarida bir silkinish tarzida yuz berayotgan, haqiqiy tushga o’xshash ruhiy holat qanday usullar bilan qog’ozga ko’chdi, nega u hozirgacha adabiyotimiz tasvirlab kelgan “soxta” tush tasviridan o’ta farqliligicha, noma’lumligicha qolaveradi”¹⁸. Xuddi ana shu holatni Isajon Sulton romanlari, qissalari va hikoyalarda kuzatamiz. Isajon Sulton ijodining salmoqli qismini egallagan hikoyalarda inson obrazi va uning hayoti turli murakkabliklar ichida, ichki kechinmalar kolliziyasi fonida real tasvir etilmoqda. Hikoyanavis asarlarida yangi turmush kishisining hayot tarzi, istiqloq keltirgan erkinliklardan bahramandlik va yangiliklardan qoniqish motivlari keng o’rin olmoqda. Eng muhimi shuki, Isajon Sulton hikoyalarda hayotning nurli tomonlari, voqelikning musbat qutblari tasviri va yaxshi odamlar talqini tobora kengayib bormoqda. Isajon Sulton hikoyalari jamiyatda ro’y berayotgan tub ijtimoiy ma’naviy o’zgarishlarning badiiy in’ikosi o’laroq dunyoga kelgani uchun ham ularda zamondoshlar ruhiyati teran tadqiq etilgan. Isajon Sultonning orginal uslubi g’arb va sharq prozasining yuksak ideallari va badiiy sintezni ifoda etgan “Bo’ri”, “Og’riq tog’i”, “Bog’i Eram”, “YOg’och kovush”, “Ota qasidasi”, “Go’zal”, “Tosh kelinchak”, “SHamolli kecha”, “Bo’ri”, “Qismat” kabi qator hikoyalari bilan keng jamoatchilikka tanildi, kitobxonlar e’tirofiga sazovor bo’ldi. Ma’lumki, keyingi davrda insonlar uchun haqiqiy ibrat namunasi bo’ladigan kishilar obrazini yaratishga intilish ancha kuchaydi. Adabiyotshunos U.Normatov ta’kidlaganidek, “kuchli, go’zal inson obrazi yaratilgan asarlarga bo’lgan ehtiyoj, ayniqsa, Vatanimiz mustaqillikka erishgan, millat o’z qadrini rostlash, o’zligini to’laroq namoyon etishga erishgan hozirgi kunlarda nihoyatda katta”¹⁹. Isajon Sulton

¹⁷ Normatov U. Umidbahsh tamoyillar. - Toshkent: Ma’naviyat, 2000. -B.123.

¹⁸ B. Nazarov, M. Tenglashov. Qismatga qastma-qast. O’zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi, 1999. 28-aprel. 4-bet

¹⁹ Normatov U. Umidbahsh tamoyillar. Toshkent. Ma’naviyat. 2000. B.71-72.

hikoyalarida bugunning kishisi, uning orzu-umidlari, dardu hasratlari real voqealar bayonida, oʻziga xos badiiy uslubda ifoda qilinadi.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, I. Sulton oʻz hikoyalarini mazmun-mohiyatiga koʻra alohida turkumlarga boʻlib tavsiya etishni sevadi va ularni turkumlashdan kutgan gʻoyaviy niyatini umumiy sarlavha zimmasiga yuklaydi. Masalan, bir turkum hikoyalarini kimyo faniga oid atamalar bilan “Organik hikoyalar”, “Noorganik hikoyalar” deb atar ekan, ularda tirik, jonli mavjudotlar (organik) – inson, hayvon, darranda-yu parrandalar, chumoli-yu kapalaklarning sirtidan qaraganda jonsizdek koʻringan (noorganik) tabiat unsurlari – dov-daraxtlar, oʻt-oʻlanlar hatto tuproq, loy, devorlar bilan oʻzaro aloqadorligi, ularning bir-birisiz yashay olmasligi singari gʻoyat dolzarb muammolarni oʻrtaga tashlaydi. Shuningdek, “Yer-u osmon oraligʻida”, “Bogʻi Eram hikoyalari”, “Qaydasan, jannat” nomi bilan atalgan turkum hikoyalarida ham adib insonning kundalik tashvishlarini tasvirlash orqali umumbashariy muammolarga eʼtiborni tortadi.

Isajon Sulton hikoyalarida ota, ona, oʻgʻil, qiz, turli qiyofadasi odamlar obrazlari alohida originallik bilan yaratiladi. Adib hikoyalarida, ayniqsa, ayollar obrazi alohida mehr bilan tasvir etiladi. Bu oʻrinda yozuvchining “Goʻzal” deb nomlangan hikoyasi tahliliga eʼtibor qaratmoqchimiz. Hikoya koʻcha boʻyidagi ajriqzorda gap sotib oʻtiradigan bekorchilar suhbatini bilan boshlanadi va asar qahramoni taqdiri ham ular suhbatini orqali ochib beriladi. Muallif hikoya boshidayoq “havo sarin, quyosh bulutlar orasidan koʻrinmas, tevarakda engil shabada esib, sokin kuz havosi kezar, vaqt qiyomdan oʻtgan mahal”²⁰, - deya tabiat tasvirini keltiradi. Badiiy adabiyotda “kuz” poetik timsoli inson umri hazoni sifatida keltirilishi maʼlum, shu bois asarda kimnidir umr hazoni haqida hikoya qilinishiga ishora beriladi. “YUzi sutday oq, qoshi qaldirgʻoch qanotiday, koʻzi yulduzday, qomati tippa-tik, xullas, har qanday kishini lol qoldirib qoʻyadigan darajada suluv” qiz qismati hikoya syujetining asosini tashkil etadi. Adib mahorati shundaki, bu goʻzal qizning boshiga tushgan savdolarni bekorchi suhbatdoshlar soʻzlari orqali yoritib beradi, hikoyada qiz tomonidan aytilgan bironta

²⁰ Исажон Султон. Боғи Эрам. –Тошкент, “Шарқ”, 2015. Б. 207.

soʻz ishlatilmaydi. Hikoyada muallif qiz harakterini, uning qalb olamini, ichki va tashqi goʻzalligini ochishda uning taqdiridan habardor “toʻrtinchi kishi” nutqidan foydalanadi. Biron-bir ishning boshini tutmasdan boyib ketish ilinjida bekorchilikdan boʻlar-boʻlmas gap sotayotganlarning eʼtiborini yoʻl chetidan ular tomon kelayotgan goʻzal qiz tortadi. Uni birinchi boʻlib koʻrgan “orzumand bekorchi” qizning goʻzalligini koʻrib, hatto oʻrnidan turib ketayozdi. Bekorchilarning har biri qiz haqida oʻzicha fikr yuritadilar, birovi “goʻzallar bevafo boʻladi desa”, yana birovi “goʻzallar yolgʻiz boʻladi”, “orzumand bekorchi” esa shunday suluv maʼshuqasi boʻlsa sira yonidan ketmay unga termulib oʻtirishini aytadi. SHunda suhbatga toʻrtinchi kishi aralashib, qizning tarixini gapirib beradi. Oddiy bir xonadonning qizi boʻlib ulgʻaygan bu goʻzalning chiroyiga juda koʻpchilik yigitlar oshiq boʻlganligini, hatto uni oʻziga qaratish uchun baʼzilar hiyla-nayrang ishlatgani, ammo qiz ularning hech biriga qiyo boqmaganini va nihoyat, boshqa mahalladagi bir yigitni sevib qolganini hikoya qiladi. Muallif qizning qalbini egallagan bu yigitni asarda “toʻrtinchi kishi” tilidan “har tomonlama mukammal, koʻrkam, toʻkin-sochin bir oilaning yolgʻiz bolasi”, “qizga arziydigan bir oʻgʻlon” deya taʼriflaydi. Ammo qiz taqdiri yigitning boshiga tushgan falokat tufayli tubdan oʻzgaradi: “Taqdirni qarangki, qaydandir kelishayotganda falokat yuz berib, ota-onasi oʻladi, yigit esa hushidan ketgancha qaytib oʻziga kelmaydi”. Toʻrtinchi kishi tilidan aytilgan ana shu lavhadan keyin muallifning badiiy niyati yanada oydinlashadi. Adib iffatli, goʻzal, sadoqatli, vafoli oʻzbek qizining tugal siymosini toʻlaqonli gavdalandirib, haqqoniy va taʼsirchan aks ettira olgan. Sevgan yigitining ahvolini koʻrgan qiz “qushday potirlab oʻzini har yonga uradi”, “toʻqson ikki kun yonidan ketmaydi”, shifokorlar tuzalsa ham majruh boʻlib qolishini aytsa ham parvo qilmay yonida koʻz yosh toʻkib oʻtiraveradi. Biroq yigitda jon asari sezilmay, xushsiz yotaveradi, hamma umidini uzadi, hech kim yordam bermay qoʻyadi, yonida hech kim qolmaydi. Ana shunday kunlarning birida yigit nogahon koʻzini ochadi va tepasida koʻzlari jiqqa yosh qizni koʻradi, ammo gapirolmay, nigohlarini unga qadaydi. SHifokorlar “hanuz umid yoʻq” deyilar. Qiz esa umid bilan kutadi, bir joyga farrosh boʻlib ishga kiradi, yigitga dori-darmon, oziq-ovqat topish uchun ishlayveradi. Muallif bu fikrlarning hammasini asar qahramoni tilidan aytadi va shu

orqali hikoyaning bosh qahramoni bo'lgan go'zal qizning farishtamonand siymosini yaratadi. Go'zal qiz taqdirini eshitgan suhbatdoshlar hikoya boshida unga boshqacha nigoh bilan qaragan bo'lsalar, endi uning inson bolasi etisha olmas yuksakliklarga ko'tarilgan malak sifatida qaraydilar. Hikoya tili o'qishli, uslubi ravon, tasvir tabiiy va ta'sirchan. Obrazlarni individuallashtirishda ko'proq ularning nutqi va dialoglardan foydalanilgan. Hikoya har tomonlama go'zal ayollarni madh etuvchi, ezgulik va sadoqatni kuylovchi, go'zal insonlar ibratini targ'ib qiluvchi mohiyatga ega. Hikoyaning estetik-ma'rifiy ahamiyati shundaki, unda o'zbek qizlari, ayllarining vafosi, mehr-oqibati kabi azaliy qadriyatlari ulug'lanadi, bu esa o'quvchi qalbida ularni e'zozlash va mazmunan boyitish tuyg'usini kuchaytiradi.

Isajon Sulton hikoyalarida ko'pincha oddiy qishloq kishilari, mehnatkash va zahmatkash xalq farzandlarining taqdiri qalamga olinadi. Adibning "Qaydasan, jannat" turkumiga kiruvchi hikoyalardan biri "Tosh kelinchak" deb ataladi. Hikoyada Nazar va Ummugulsum taqdiri hikoya qilinadi. Muallif hikoyaning bosh qahramoni Nazar obrazini jonli bo'yoqlarda shunday chizadi: "...baquvvat, chayir, quyuq qoshlari chimirilgan, qora ko'zlarida o't chaqnab turadigan shijoatli yigitcha edi. U jo'raboshimiz bo'lib, hammamiz nima desa itoat qilardik. Chunki aqlda ham, kuchda ham bir pog'ona baland turardi-da. Bizlar chiqolmaydigan daraxtlar ustiga birpasda o'rlab ketardi, baland shoxlari orasida ko'rinmay, axiyri qush poloponini yoki tuxumini olib tushardi..... Xullas, balo edi a Nazar deganlari"²¹. Hikoya Nazar tavsifi bilan boshlanadi, uning otasi dalada suvchi, onasi esa uyda farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi mehnatkash kishilar edilar. O'tganning o'rog'ini, qaytganning ketmonini olib qoladigan Nazar esa ota-onasini juda qadrlar, ular qanday yumush buyursa so'zsiz bajarardi. Shu bois otasi ham, onasi ham Nazarni juda yaxshi ko'rishardi. Buyi etgan Nazar qishlog'idagi Samad novchaning "cho'pday ozg'in, sochi kalta" Ummugulsum ismli qizini sevib qoladi. Qizga sevgisini izhor qiladi, biroq qiz rad qiladi. Shunda Nazar qo'shnining g'o'zapoyasini yoqib yuboradi, Samadning sigirining qorniga panshaha tiqadi, daraxtlarning katta-katta mevali

²¹ Исажон Султон. Боғи Эрам. –Тошкент. "Шарк", 2015. Б. 227.

shohlarini sindirib tashlaydi, kuchuk-mushuklarni uradi, hamma joyda to's-to'polon ko'taradi. Hamma uning Ummugulsumga bo'lgan sevgisidan habar topadi, qizning akalari kelib Nazarni urmoqchi bo'ladilar, biroq uning shahdidan cho'chib ortga qaytadilar. Ummugulsumning ota-onasi o'ziga to'q oila bo'lgani bois qizini Nazarga berishni xohlashmaydi, tagli-tugli oilaga kelin qilishni istaydilar. Nazar esa o'z bilganidan qolmaydi, qizni butun vujudi bilan sevadi. "Axir, men sen bilan bitta bo'lib qolganman-ku, qanday qilib ketay,-dermish. –Axir, ko'zim sendan boshqani ko'rmaydi-ku? SHafaqni rangiga qarasam ham seni ko'raman. Oyga qarasam ham, quyoshga qarasam ham seni ko'raman. Qayga boqsam, sen borsan. Sensiz men qup-quruq g'ilof bo'lib qolaman-ku, axir, ichim sen bilan limmo-lim to'lgan-ku? YUrishingni, kulishingni, qovoq uyishingni hech kimga o'xshatolmayman-ku? Ko'cha-kuyda zor bo'lib qolaman-ku senga? Bilsang, hatto iting bo'lib qolishni orzu qilaman-ku, o'sha it ham mendan ko'ra tuzukroq, tepsang ham, ursang ham mendan baxtliroq deya? Sen...nima qilib qo'yding meni?...."²². Muallif hikoyada Nazarning Ummugulsumga bo'lgan muhabbatini chegara bilmas tarzda tasvirlaydi. Qizni ota-onasi turmushga beradilar, telbasifat bo'lib qolgan Nazar esa uning yo'llarini poylayveradi. Qishloqning yuqori qismida joylashgan Toshkelinchak degan qarovsiz bir joy hikoyaga kiritiladi. Muallif Toshkelinchak haqidagi rivoyatni keltirib o'tadi. Rivoyat qilinishicha u asli tosh emas, suyganiga etolmasdan, odamlardan qochib borib toshga aylanib qolgan bir kelinchak dech ta'rif qilinadi. Ummugulsum ikkinchi farzandini tug'olmay olamdan o'tadi, Nazar esa tirik murdaga aylanadi. Toshkelinchakka borib tosh ustida uzoq-uzoq o'tiradi, Ummugulsumning qabri ustiga borib oh chekadi, odamlardan qalban uzoqda, o'zga bir olamda yashaydi. Muallif Nazar obrazi ichki olamini uning chek-chegara bilmas muhabbati, dardu-hasratlari fonida haqqoniy tasvirlaydi. Hulusa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, hikoyada muhabbat insonni ne kuylarga solishi, sevgiga mubtalo bo'lgan kishinining qalbini anglamaslik, chin muhabbat savdolari, Nazarning boshiga etgan ishq mojarosi jonli tarzda bayon qilinadi.

²² Исажон Султон. Боғи Эрам. –Тошкент. "Шарқ", 2015. Б. 235.

Isajon Sultonning qator hikoyalarida yaratilgan obrazlar va ularning ruhiyat tasviri betakror. Yozuvchining yaratgan har bir qahramonidan kitobxon nimanidir olishga va nimadandir voz kechishga harakat qiladi. Chunki, yozuvchi badiiy asoslashni va bu boradagi badiiy detallarni juda o‘rinli qo‘llaydi. Shu boisdan ham Isajon Sulton asarlarni o‘qigan kitobxonda voqealar real hayotda yuz berayotgandek tasavvur qoldiradi. Adib xalqimizning adabiy-estetik ehtiyojini qondirishga shuningdek, ijtimoiy-estetik didni o‘stirishga intilib kelayotgan iste’dodli ijodkorlardan biridir.

1.2. Adib hikoyalarida inson ruhiyati tasvirining turfa talqinlari

Ruhiyat tasviri badiiy asarning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, inson psixologiyasi va ichki ma’naviy olamini tadqiq etishga qaratilgan. Shaxs ruhiyati dinamik ravishda ijtimoiy turmush, kishilar munosabatlari taqozosi bilan o‘zgarib, yangilanib boruvchi jarayon. Bu jarayonni tahlil qilish an’anaviy va zamonaviy tasvir tamoyillariga bab-baravar daxldordir. Inson adabiyotning asosiy tasvir obyekti ekanligi ma’lum va ilmda e’tirof etilgan haqiqatdir. Bu fikrda asosiy ma’no qaratilgan tushuncha “tasvir” so‘zida mujassamlashgan. Zero, inson shaxsini badiiy kashf etish avvalo o‘sha tasvirdan ko‘zlangan maqsad, uning yo‘nalishi, miqyosi va ifoda xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, ijodkorning voqea, kechinma, bayon uslubi, ichki nutqi, poetik til mahorati kabi tasvir vositalariga munosabatida yorqin ko‘rinadi. Bularning qo‘llanish miqyosi shaxsni real yoxud ruhiy olam kontekstida talqin etish xususiyati bilan izohlanadi. Lekin har ikkala holatda ham inson tasviri hal qiluvchi omildir.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, hozirgi davrda adabiyotshunoslikda nasriy asarlar, jumladan, hikoyalar yutuqlari, mualliflar mahorati ko‘pincha personajlar ruhiyati tahlili darajasiga qarab baholanmoqda, voqea, epik bayon roliga e’tibor biroz susayganday tuyuladi. To‘g‘ri, adabiy qahramonning qalb olami, psixologik holati, kechinmalari badiiy mukammallikning muhim shartlaridan biri, lekin yagona mezon emas. Chunki, epik asardagi obrazlar ichki dunyosi, tuyg‘ulari, botiniy evrilishlari ifodasi bo‘lgan ruhiyat muayyan voqea ta’siri tufayli tug‘iladi. Natijada voqea va ruhiyatning, epik bayon va hissiy talqinning uyg‘unligi, uzviy aloqadorligi vujudga

keladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "odam tasviri demak – to'lig'icha odamning ichki dunyosi tasviri, uning kechinmalari tasviri demakdir"²³, degan fikr voqea ahamiyatini butunlay rad etmaydi. Zero, ruhiyat va voqea uyg'unlashgan tasvirni adabiy ijod tabiati, "obyekt"ni badiiylik qonuniyatlari asosida individual va mushtarak belgilari bilan gavdalantirish zaruriyati taqozo etadi va bu jarayonda asosan ruhiy-psixologik tahlil bo'rtib turadi. Binobarin, "psixologik tahlil" inson psixikasi jarayonlarini, uning fikr va hissiyotidagi turli-tuman ohanglar rivojini aks ettiruvchi, qahramon ruhiy dunyosini analitik prinsipda ochuvchi estetik kategoriyadir"²⁴. Bu kategoriyaning turli yo'nalishdagi hikoyalarga xos xususiyatlari badiiy ijod takomili bilan bog'liq holda aks etadi. Isajon Sulton hikoyalarida inson ruhiyati turfa chizgilarda beriladi. Isajon Sultonning keyingi yillarda og'izga tushgan, hatto 2011-yilda jahonning o'nta yetuk hikoyasi qatoridan o'rin olgan, postmodernizmning a'lo asarlaridan deb baholangan "Qismat" hikoyasidagi metamorfoza ko'rinishidagi epizod – jabrdiyda, alamzada o'g'lonning baliq timsolida namoyon bo'lgan marhum ota haqida achchiq ustida aytgan bir og'iz so'zi xususida "Sharq yulduzi" jurnalida berilgan maqolada bildirilgan keskin tanqidiy mulohazasi bosilib chiqdi. "Xos kalom xosiyati" sarlavhali mazkur maqolada kuyunchak muallif Uzoq Jo'raqulov hikoyadagi ayni shu holatni "g'ayriinsoniy g'oyalarga, shaytanat afsunlariga bilib-bilmay mahliyo bo'lish", "freydizm afsunlariga mahliyolik", "G'arbga taqlid o'laroq, begona, g'ayrihaqqoniy" hodisa deya hukm chiqaradi²⁵. Ehtimol, personaj so'zlari ifodasida bir oz keskinlik, g'alizlik bordir, ammo hikoyani sinchiklab o'qisangiz, undagi bir oila a'zolari- ota, ona, uch o'g'lon qismati, hayot tarzi, har birining betakror tabiati, fikrlash, o'ylash yo'sinlari bilan tanishsangiz, ularning har biri o'zicha bir olam ekaniga iqror bo'lasiz. Boz ustiga, katta o'g'il bilan ota, qolaversa, ota bilan barcha oila a'zolari – ona, o'rtancha va kichik o'g'lonlar orasidagi murakkab munosabatlar, xususan, Ota tabiatidagi tundlik, shafqatsizlik kabi illatlarning hayotiy asos – sabablari hikoya janri imkoniyatlari doirasida mohirona ochib berilgan.

²³ Адабиёт назарияси. I том. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.53.

²⁴ Умутов Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.17-18.

²⁵ У.Жўрақулов. Хос калом саодати // Шарқ юлдузи, 2013,3- сон, Б. 132.

Ota mustabid tuzum qurboni, bir vaqtlar rahbarlik lavozimida ishlagan kezlari u o'z huzurini o'ylab namozxon otasiga qo'l ko'targan, qamalib ketish xavfidan qo'rqib padari buzrukvorining sha'nini toptagan, shu tariqa begunoh otaning qarg'ishiga qolgan. Shu tufayli bir umr ishi yurishmaydi, besamar, bir xildagi zerikarli, mashaqqatli ma'nisiz yumush – poyoni yo'q qamishzorda betinim qamish o'rish tinkamadorini quritadi; alamidan ichadi, mast holda ayoliga, bolalariga o'shqiradi, ularga kun bermaydi, kaltaklaydi... U shu holda zamon talotumlari girdobida dunyodan bedarak o'tib ketadi. Milliy turmush tarzimizning alomat jihatini qarangki, mushtipar ona, ikki o'g'lon marhum alamzada bu kimsadan shunchalar shafqatsizliklar ko'rgan bo'lsalar-da, aslo undan yuz o'g'irmaydi, ota qilmishidan nolimaydi, Allohdan uning gunohlari kechirilishi, oxirati obod bo'lishini tilaydi. Odam tabiati qiziq ekan-da, birgina alamzada katta o'g'il ota gunohini kechirmaydi, kechirolmaydi. Xasta onasi dardiga davo bo'lar, degan umidda zovurda paydo bo'lib qolgan tilla baliqni ovlab onasi uchun qozonda qovurayotganda, uni otasi arvohi timsoli degan o'y bilan u haqda ko'nglida yig'ilib yotgan dard-alamlarini to'kib soladi. Munaqqid o'z maqolasida Katta akaning aynan shu alamli so'zlarini keltiradi-da, uni biz uchun “begona”, “botil e'tiqod” , “g'arbiga taqlid”, “g'ayrihaqqoniy”, “freydizm afsunlariga mahliyolik” degan keskin xulosalarga keladi.

Yozuvchi hech qachon bitta holat, bitta masalaga yopishib olmaydi. Uning “Shamolli kecha”, “Sog'inch”, “Avliyo”, “Oydinbuloq” hikoyalarida shamol esishi, o'yini, qahri, muloyimligi o'ziga xos timsol. Darvoqe, yozuvchining “Boqiy darbadar” romanida bo'ron dahshatli tush va ilohiy aralashuv sifatida ko'rsatilgan edi. “Ozod”da sarsari shamol ham hamroh, ham ustoz, ham roviy, ham tabiatning betakror kuchi. Ozodning Uchyong'oqdan Iskandar tog'igacha borishida shamol yetakchilik qiladi. “Shamolli kecha” hikoyasida shamol real voqelik hamda taqdir shamoli tarzida namoyon bo'ladi. Hayot shamolining turli-tuman xavflari aro onasi Nozik, xolalari Latofat, ammalari Go'zal deb ataydigan, ko'zlari kulib-kulib turadigan yoqimtoygina qizaloq, ya'ni go'zallik, latofat, nazokat timsoli va eng asosiysi, akaning or-nomusi qo'rquvlar bois o'sha xavf-xatarlar ichida qolib ketdi. Vaholanki, yolg'iz himoyachisi - akasi edi... Bu zalvorli hikoyaning boshqa bir jihati- naslni davom ettira oladigan

yagon ayol ham o'sha qizaloq edi, chunki "ota boshqa ayolga uylangan, boshqa farzand ko'rgan, aka-singil undan yotsirar edilar..."

To'plamdagi "Sofiya" hikoyasida shu nom bilan aytiluvchi to'fonning qisqa muddat ichida quturishi, asov toyday ko'kka intilishi, toshqin daryoday yutoqib-yutoqib po'rtana urishi, adadsiz kuchi bilan og'ochlarni qars-qars sindirishi, chaqmoq chaqib, g'aramlar, daraxtlarni lov-lov yondirishi tasvirlanadi. Qizig'i shundaki, roviy to'fonni buzg'unchi yovvoyi kuch sifatida tasvirlaydi. Sofiya muhitni o'zgartirdi. Sharillab yoqqan yomg'ir nafaqat chor atrofdagi, balki qalbdagi g'uborlarni yuvib tashladi. Tiniq tasvirlarga boy bu hikoyani o'qir ekanmiz, to'satdan...to'fonning sira to'fon emasligi, balki muhabbat ekanligi anglashiladi. Ha, ishq inson hayotiga shu tarzda, bo'ron yanglig' kirib kelishi mumkin deydi roviy. "Sofiya" so'zi yunonchada yuksak ilohiy donolik, Iymon, Umid va Muhabbat ma'nolarini anglatadi, bu hikoyaning ochqich-kaliti shu so'zdir. Mana shu pozitsiyadan turib nazar tashlasak, dala hovli- inson muvaqqat turadigan joy ekanini sezib qolamiz, xassos lirizmga moyil qahramonning qiyofasi birdaniga o'zgaradi va umidsiz, ishonchsiz, muhabbatsiz, bir xilda hayot kechirayotgan kishining iztiroblari qalqib chiqadi. Qolaversa, nafaqat muhabbat, balki voqea-hodisalar va tuyg'ulardan tashqari, boshqa tur ma'naviy bo'ronlar ham borki, ular ham inson hayotini mana shunday tubdan o'zgartirib yubora oladi.

Isajon Sulton asarlarida shamol – yozuvchi imkoniyatidagi tuganmas poetik imkoniyat. Yaratilajk timsollar moyasi. Yozuvchi nafaqat shamol, bo'ron, to'fonni, o'rni-o'rni bilan hasharotu hayvonotni, parrandayu barqu bulutni, kapalaklar, ninachilarni tasvirlaydi. Ularning har biri ma'no qati, ramzi sifatida aks eta boshlaydi. Xullas, postmodernistik asarda hamma narsa o'z o'rnida betakror timsol vazifasini o'taydi.

"Qismat" mustahkam kompozitsiyasi, polifonik ruhi bilan diqqatni jalb qiladi. Voqea nihoyatda oddiy. Keksa ona – bemor. Unga baliq go'shti davo bo'larmish. Uch aka – uka baliq topib kelishadi. Ona quvona-quvona baliqni yeydi. Hikoyaning mohiyati boshqa tomonda: baliq vositasida aka-ukalar marhum otalarini, ona erini eslab ketadi. Otaning qilmishlari; gap-so'zlarini har bir aka-uka o'zicha

tushunadi, o'zicha talqin qiladi. Kichkina o'g'il zovurdagi jonzotni oltin baliq deb o'ylaydi, uni kuzatishdan zerikmaydi. Zovur bo'yida o'tirib, turli holatlarning va manzaralarning guvohi bo'ladi. Metamorfozalarga, ya'ni bir jonzotning boshqa bir jonzotga aylanish hodisasiga diqqat qaratiladi. Mana, tuxumni yorib, kichkina, nimjon ninachi bolasi chiqadi. Kenja o'g'il murg'ak hasharotning paydo bo'lishiga guvoh bo'ladi. Negadir uning diqqatini barra maysalar, qish uyqusidan uyg'ongan hasharotlar jalb qiladi. O'rtancha o'g'il ukasining g'aroyib qarashlarini qabul qiladi. Lekin uning ongida boshqacha tushunchalar ham yo'q emas. Negadir otasining ruhi zovurdagi baliqqa ko'chganday ko'rinaveradi. Uningcha baliq ona dardiga malham. Ikkinchi tomondan, baliq jismiga otaning ruhi singib ketgan. O'ylay-o'ylay o'yining oxiriga yeta olmaydi. Lekin baribir, akasiga zovurdagi baliq haqida xabar beradi. Aka baliqni olib kelishni, onasiga qovurib berishni maqsad qilib qo'yadi. Shunday qiladi ham. Baliqni otganda, ichak-chavag'ini olib tashlaganda, bo'laklarga ajratganda ongining bir chetida otasi turadi. Baliq timsolida otasidan qasd olayotganday bo'laveradi. Otasi zolim, onasini azoblardi, o'g'illariga beparvo edi. Hatto bir gal jahl ustida o'rtancha o'g'lini tomga otib yuborgan. Kata o'g'lida qasoskorlik ruhi kuchli. Ona ham bolalarining otalarini eslaydi, toppish-tutishida Baraka yo'qligini, ko'p ichishini aytadi, lekin erini yomonlamaydi. Xudodan o'z jufti haloliga rahmat, mehr-shafqatlar so'raydi. Ota esa esini tanibdiki, qamish o'radi, hayoti dunyodagi holini elas-elas eslaydi. Adoqsiz qamishzor jon-joniga tegib ketgan. Qachon tugarkin bu azob-uqubat. Qo'lining tirmalmagan, yuz-ko'zining yara-chaqa bo'lmagan joyi qolmagan. Ota alamidan ichardi. Ulfatlari davrasida ichkilik sarxushligida o'zini emin-erkin tutardi. Har kuni bir qush kelib "oqpadar, oqpadar" deya boshidan cho'qirdi. Qarang, bir voqea, bir holat turli yosh, tushunchadagi kishilar tomonidan chuqur badiiy talqin qilinadi.

Hikoyadagi arxitektonika, obrazlarni yoritish yo'sini betakror, yangi. Yozuvchining qismat hikoyasi 2011-yilda jahonning 10ta yetuk hikoyasi qatoridan o'rin oldi, postmodernistik uslubning a'lo asarlaridan biri deb tan olindi, "Qo'riqchi" hikoyasiga batafsil to'xtalish lozim. Bu hikoya polifonik va ko'p qatlamli ma'no tashishi bilan ham "Boqiy darbadar" va "Ozod" romanlariga hamda "Qismat"

hikoyasiga o'xshash. Lekin yozuvchi usubini aniq ifodalaydigan barkamol hikoyalardan biri. Muallif bu hikoyada tag ma'nolar oqimini boshqarishga intiladi, tasvirlangan voqeaning bari birlashib, umumiy yaxlit manzarani hosil qiladi. Bir vaqtning o'zida ham tarix(xalqona qo'shiqlar timsolida), ham bugun (reallik tasvirlari), ham kelajak jam. Hikoyani o'qir ekanmiz qo'riqchini hayiqtirgan g'alati oqimni biz ham seza boshlaymiz. Ha, har birimiz o'z hayotimizning va rizqu ro'zimizning qo'riqchisimiz. Bu yerda yozuvchi timsollarning o'quvchi shuurida paydo oladigan manzaralarni mo'ljal olin asar yaratgan.

“Yoqimtoy pushtirang maxluqcha”- o'ziga xos postmodernistik asar. Tabiatda g'aroyib maxluqlar ko'p. “Ozod” romanidagi to'ppa- to'g'ri inson yuragiga hujum qiladigan yajuj-majujlardan farqli, sirtida beo'xshov katoblepas maxluqi bor. U yovuzlik, zo'ravonlikka befarq bo'la olmaydi. Maxluq uyasi joylashgan yoniga oyoqlari chilvirlangan quyonni keltirib tashlaydilar. Katoblepas azoblanayotgan quyonning atrofida gir-gir aylanadi. Chunki, zulm hodisasi ro'y bermoqda. Zulm ilonning quyon bolasini o'lja qilishida emas. Said va sayyod hodisasi tabiat yaratilgandan beri azaliy davom etib kelyotgan hodisa. Zulm bu yerda quyonning chilvir bilan kishablanishi va atayn ilonning qarshisiga keltirilib qo'yishida namoyon bo'lmoqda. Yoqimtoy pushtirang maxluqchani buyerga olib kelib tomosha qildiradiganlar va tomoshabinlar ham zolimlardir, gap mana shunda. Tomosha talab olomon iborasiga diqqat qarating. Xullas, bir mahal toshlar orasidan yo'g'on, uzun bo'g'ma ilon chiqib keladi. Pushtirang maxluqcha o'zini tamoman yo'qotadi. Dam quyonga, dam ilonga boqadi. Xullas, ilon quyonni yutishga tayyorlanyapti. Pushtirang yoqimtoy maxluqcha to'satdan o'zini- o'zi yeya boshlaydi! (dard chekayotgan odam ham o'z ich-etini yemaydimi?) Qizig'i qon ko'rinmas edi. Bu harakat ilonni chalg'itadi. Quyon xatardan qutuladi. Ajabki, hozirgina chaynab uzib tashalangan panjalar yana o'sib chiqaveradi. Biroq voqea tomoshaxonada ro'y berayotir-ku? Qayta- qayta takrorlanaveradigan bu holatni tiniq aks ettigan bu hikoya – tom ma'nodagi postmodernistik asar. Noreal voqelik orqali muhim insoniy holatni tasvirlab bergan.

“Sog‘inch” hikoyasi ham “Yoqimtoy pushtirang maxluqcha” ga o‘xshab ketadi. Uzoq yurtlarga mardikor ishlashga kelgan dehqon yigit tuxumdan endigina chiqqan musicha bolalarini bag‘rida ko‘tarib yuradi. Ularni hasharotu, don-dunlarni yeyishga o‘rgatadi. Musicha bolalarini e‘zozlaydi, qalb qo‘rini beradi. Insoniy harorat, mehr bachajish qushlarning odam bo‘lishiga hissa qo‘shadi. Qiziq paradoks shunda: olislarda tirikchilik dardida yurgan odamda birdan musichaning polaponlariga nisbatan kuchli mehr, rahm-shafqat hissi uyg‘onib ketadi. Sababi hikoyaning keying qismlarida ayon : “chunki, olislarda mening ham polaponlarim bor...”.

Tagma’nolar joylash Isajon Sultonning asarlaridagi muhim xususiyatlardan biridir. “Askar” hikoyasidagi zamonaviy jangda Vatan deya fidokorona halok bo‘lib kketayotgan bir askarning taqdiri... inson organizmi ichida doimo kechadigan, fan allaqachon aniqlagan va bilsak-da, ko‘pam e‘tibor bermaganimiz jarayon ekanini payqaymiz. “Sen bizlarsiz, bizlar esa sensiz mavjud bo‘la olmaymiz”, deydi askar. Har bir inson organizmidagi kasallikka qarshi kurash mexanizmi bus-butunicha tashbeh ko‘rinishiga o‘tadi va boshqa bir ma’noga – fuqaroning o‘z Vataniga xitobiga aylanib ketadi.

Isajon Sultonning “Farishta” hikoyasida ham inson ruhiyatining botiniy qirralari, uy-fikrlari, ichki kolliziyasi o‘zgacha ohangda talqin etiladi. Muallif asarga Farg‘onaning chekka bir qishlog‘ini ekspozitsiya qilib oladi. To‘ydan kech qaytayotgan er-xotin sarguzashti asar mohiyatini ochuvchi asosiy voqeadir. Voqea to‘g‘ridan-to‘g‘ri tugundan boshlanadi. Xotini bilan etaklashib to‘ydan qaytayotgan urning hayoli turli o‘ylar bilan band, alamzada holatda odim tashlaydi, hali mislsiz qahramonliklar ko‘rsatib, qishloq ahlini lol qoldirishni xayol qilib ketayotir.Uning xayollarini xotini buzdi va erda yotgan g‘alati narsani ko‘rsatdi. “Terakzorlar adog‘ida, chakalakzor boshlangan joyda ko‘rib qolishdi uni. Kichkinagina ekan. Oyoqchalari ham mittigina. Tuproqni changallab olibdi, yelkasida ikkita qanotchasi ham bor, uchidagi parlari shundoqqina loyga belanib, shalvirab tushibdi. Bir qanoti g‘ayrioddiy qayrilgan, xullas, g‘ujanak bo‘lib yotar edi. Boyagina yomg‘ir yog‘ib o‘tgan, tomchilari hozir teraklarning, butalarning barglarida turib qolgan edi. Yerlar loy, mana shu loyu balchiq aro, tegrasida turli o‘t-o‘lanlar o‘sgan tuproq yo‘lning qoq o‘rtasida

nochorgina yotar edi boyaqish”²⁶. Isajon Sulton tasvirni xuddi rassomdek chizadigan yozuvchi. YUqoridagi parchada ham xuddi shunday tarzda o‘quvchi ko‘z oldida holatni yorqin ranglarda gavdalandiradi. Ulkan xayollar bilan borayotgan erning “kapalagi uchib ketdi”. SHu o‘rinda hikoyaga it obrazi kiritiladi, uning ko‘zlari shu qadar g‘alati ediki, bu atroflarda er-xotin hech qachon bunday itni ko‘rmagan edilar. “U yanada yaqinroq bordi. Ha, yerda loyga belanib yotgan kichkina shu oqish vujud rostdan ham farishta edi! E tavba, dedi hayron bo‘lib, xayolida turli-tuman o‘ylar nihoyasiga yetmasdan chirpirak bo‘lib aylanarkan. Farishtaning ham bolasi bo‘lar ekan-da? Hali mo‘rt, suyagi qotmapti-ku. Kichkinaligini qara! Voy bechora... Qushday uchib ketayotgan ekan, yiqilib tushganga o‘xshaydi. Mana, qanaqa bo‘lar ekan farishta deganlari... E tavba-a, xudoni qudratini qara-ya. Nima bo‘ldi ekan? Uchib ketayotib nimadir ro‘y berganu yiqilib tushgandir? Tavba, farishtalar ham o‘lar ekan-da. Nega o‘lmasin? Balki yomg‘irda qanotchalarini ivib qolgandir? Nima yumush bilan uchib ketayotgan bo‘lishi mumkin shu yomg‘irli kechada? Goho sababsiz yiqilib tushib, yerda ko‘zlari olayib potirlab yotgan qushlarni ko‘rgansan-ku? Yopiray, xuddi olam bolasiga o‘xshar ekan. Oyoqchalarini kichkinaligini qara. Bizlar to‘yda yeb-ichib, maishat qilib o‘tirganimizda, bu sho‘rlik nima uchun, qayoqqa uchishni qasd qilgan ekan? Voy bechora...” SHu o‘rinda insonning oniy lahzalardagi o‘y-xayollari, hissiyotlari, inson ko‘nglining inja nozikliklari teranroq his etiladi. Inson dunyoga kelgandan keyin kimdir yaxshi nom qozonadi, kim esa yomon. Farishtani ko‘rgan erkak bir zumda ezguliklar, yaxshiliklar qilgisi keldi. YAratgannning bu mo‘‘zizasini ko‘rib, dunyo ko‘ziga go‘zal ko‘rindi. Xotinini jerkib kelayotgan odam farishtani ko‘rib bir zumda o‘zgardi-qoldi. “Uning ko‘ngli shu tob yaxshiliklarga limmo-lim to‘lib ketganday tuyula boshladi. O‘zining birdaniga juda yaxshi odam bo‘lib qolganini his qildi, bu juda yoqimli va tiniq tuyg‘u, hatto sarmast ham qilardi. Farishtaning o‘ligi-ki odamning ko‘nglini shunaqa o‘zgartirsa, tirigi qanaqa bo‘lar ekan, demoqchi bo‘ldi xotiniga. Axir, yuragim yorug‘likka to‘lib boryapti. Ko‘p javraganing bilan sen ham yaxshi xotinsan, ke, qo‘lingni beraqol. Shu murg‘ak

²⁶ Исажон Султон. Ойдинбулоқ. –Тошкент. Ғ.Ғулом нашриёти, 1995. Б.124.

vujudning mana shu yotishi nimagadir ko‘zimda yosh paydo qilmoqda. Bir-birimizga mehr-oqibatliroq bo‘laylik, qara, ajal degan narsa farishtalarni ham omon qo‘ymas ekan-ku?’²⁷. Hikoya qahramoni farishtani ko‘rishi bilan oniy lahzadayoq boshqa insonga aylandi. Bolalik, beg‘uborlik davrlarini esladi. “Bolaligimda orzularim rosa ko‘p bo‘lardi. Ota-onamning ro‘zg‘or deya urinib-berinishlariga qarab turib, u orzularimga yetolmasligimniyam bilardim. O‘shanda hayotimda bir farishta uchrab qolsayu istaklarim ro‘yobga chiqsaydi deb xayol surib yurardim. Qara, umr o‘tib ketyapti, qirqqa kirgan bo‘lsam-da, mehnatdan boshim chiqmay yashab yuribman, shu bandam farog‘at nimaligini bilsin deb, mehribon xudoyim farishtasini yubordi”. Hikoyadan shunday xulosa chiqadiki, inson hamisha hayotdan mo‘‘zija kutib yashaydi. Muxtasar bu hikoyada inson vujudidagi shaytoniy va raxmoniy hislar o‘rtasidagi holat g‘oyatda real tasvirlanadi. Adib insonlarga ezgulik farishtasi duch kelishi, ularni hamisha yaxshiliklarga chorlaydi, demoqchidek nazarimizda. “Farishta” hikoyasi inson va uning umri mohiyati haqidadir. Adib nasrining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, uning asarlarida peyzaj mahorat bilan qo‘llaniladi. Inson taqdiri, uning ayanchli qismati tabiat hodisalari, shuningdek, jonzotlar bilan qiyosan tasvir etiladi.

Bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

- Bugungi milliy nasrimizda adibalar orasida alohida o‘rinni Isajon Sulton egallaydi. 90-yillarda adabiyotimizga o‘zining hikoyalari bilan kirib kelgan yosh yozuvchi tezda o‘z iqtidorini namoyish eta bildi. Adib ijodida hikoyaning salmog‘i katta va ular bugungi hikoyanavislikning sara namunalaridan sanaladi. Bunga muallif osonlik bilan erishgani yo‘q. Bu sohada u o‘zbek milliy nasriy an‘analaridan va jahon hikoyachiligi tajribasidan rag‘bat va ilhom oldi.

-Isajon Sulton barcha asarlarida inson va tabiat bir-biridan ajralmas, ular koinot cheksizliklarida yaxlit va bir butunlikni tashkil etadi, borliq bu – yaxlitlik, demoqchi bo‘ladi. Inson borliqda benihoya nozik a‘zo, nozik hujayralardan bino bo‘lgan. Samoning cheksizligi uni qo‘rqitadi. Qo‘rqinch butun vujudi, hissiyotlari,

²⁷ Исажон Султон. Ойдинбулок. –Тошкент. Ғ.Ғулом нашриёти, 1995. Б.124.

kechinmalari, fikrlash tarzlarini qamrab oladi. Uni faqat aql va jon muhofaza qiladi. Har qanday balo-qazo, ofatlardan saqlaydi. "Qo'riqchi", "SHamolli kecha", "Mansub-1984", "Sog'inch", "Ozor", "Farishta", "Xazinabon", "Sofiya", Suvdagi kosa", "Atomlar muzeyida", "Qismat", "Bog'i Eram hikoyalari", barcha qissalari va romanlarida inson va to'fon, qo'rquv va umid, zarurat va adolat badiiy tasvir makonlariga tortiladi.

-Ruhیات tasviri badiiy asarning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, inson psixologiyasi va ichki ma'naviy olamini tadqiq etishga qaratilgan. Shaxs ruhiyati dinamik ravishda ijtimoiy turmush, kishilar munosabatlari taqozosi bilan o'zgarib, yangilanib boruvchi jarayon. Isajon Sultonning "Qismat", "Sofiya", "Farishta" kabi hikoyalarida inson ruhiyatining turfa qirralari talqinlarini uchratamiz. Adib hikoyalarida ruhan yuksalayotgan inson talqin qilinadi.

II BOB. ISAJON SULTONNING INSON OBRAZINI YARATISHDAGI MAHORATI

2.1. Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazi talqinlarining o'ziga xosligi (ota, ona, farzand obrazlari tahlili misolida)

Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazining turli xil talqinlarini kuzatamiz. Adib odamlar aro munosabatni jamiki murakkabliklari bilan aks ettirishga urinadi, inson zotiga sirli xilqat sifatida yondoshib, uning taqdiridagi izohlash mushkul bo'lgan chigalliklarni tushunishga urinadi. Uning qahramonlari ko'pincha o'ylovchi, fikrlovchi, ma'nan baland, nozik tuyg'ular egasi bo'lgan insonlar. Adiba kitobxon didining yuksakligi, hissiyotlarining ingichkaligi, so'z zalvorini his qilish salohiyatiga ishonadi. Kechinma va tuyg'ularni moddiylashtirish, har bir so'zni joyida qo'llash, holatlarni manzaralantirish, ramz va ishoralar tilida so'zlash, chigal o'ylar-u mubham iztiroblar, beadoq ishtibohlar haqidagi samimiy tasvirlar ana shu ishonchdan oziqlanadi. Isajon Sulton nasrida bugungi davr o'zbek adabiyotidagi izlanishlariga xos bir talay belgilar mujassam. Ularda ijtimoiy-axloqiy taraqqiyot yo'sinlari alohida shaxs ruhiyati orqali tasvirlanadi. Adib olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarni o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Badiiy ijodni ko'ngil ishi deb bilgani uchun shaxsning o'z-o'zini va Ollohni tanish yo'lini tasvirlashga intiladi. Shaxsning bir qarashda anglash mushkul bo'lgan murakkab ruhiyati, hissiyoti va ko'ngil talpinishlarini badiiy tadqiq etar ekan, unga alohida betakror qadriyat sifatida qaraydi, ma'naviyatini turli rakurslardan turib kuzatadi.

Isajon Sulton hikoyalari yangilanayotgan milliy tafakkurning xosilasi, o'ziga xos estetik hodisadir. Adib oddiy va jo'n tuyulgan voqealardan ulkan mazmun topishga intiladi. Bu xususiyat uning yirik epik manzaralar tasviriga o'tishiga yo'l ochadi. U badiiy niyat salmoqdorligi, voqelik mohiyatiga chuqur kirib borishida qalamini charxladi. Hayot hodisalari haqidagi fikr mulohazalarini ko'ngil tuyg'ulariga yo'g'irib, kechinmalarga burkab, qalbining teran burjlariga nigoh tashlab tasvirlaydi.

“Isajon Sulton ko'proq ota, ona, opa-singil, aka-ukalar, ularning bir-biriga mehr-oqibati to'g'risida yozishni xush ko'radi. Adibning ta'kidlashicha, “Ota naqadar ulug' zot, ona esa qanchalar muqaddas ekanini” yosh avlod ongiga singdirish har bir qalamkashning muqaddas burchidir. Ularni yozuvchining barcha asarlarida uchratish mumkin. Ayniqsa, “Ota qasidasi”, “Otamga nimadir bo'ldi”, “Shamolli kecha”, “Men, onam va O'rta yer dengizi” hikoyalari, “Munojot”, “Onaizorim” kabi qissalari bu jihatdan xarakterlidir. Aslida ota-onam mavzusining manguligi, ular obrazi yaratilgan

asarlarning son-sanog'i yo'qligi barchaga ma'lum. Shuningdek, ota-ona to'g'risida hech yo'q bir satr ko'ngil izhorini bitmagan ijodkor ham uchramaydi. Biroq, Isajon Sulton tasvirlagan ota, xususan, ona obrazi o'ziga xos tabiati va qiyofasi bilan ajralib turadi"²⁸.

“Xazinabon” hikoyasidada ham “Boqiy darbadar” dagi motivlar ko'zga tashlanadi. Mangulik sirlarini izlab aziz-avliyolarning xoki poyini ziyorat qilayotgan qahramon olma qurti rivoyatini va hazrat Navoiy hikmatini yodga oladi: “Tuxum yerga kirib chechak bo'ldi. Qurt jondin kechib ipak bo'ldi. Lola tuxumicha g'ayrating yo'qmi, Ipak qurticha himmating yo'qmu?” O'z hayotiga razm solar ekan, “yemishning eng lazzatlisi berib qo'yilgan, ammo ko'rish imkoniyatidan mahrum” olma qurti kabi, hashamlarga ko'milib yashash o'rniga, aql-u hisning, tafakkurning yuksakliklariga ko'tarilishni orzu qiladi. “U yuksakliklarga o'z aqlim bilan yetib borolmagach, balki, Hazrati Xizrni uchratarman?” deydi taassuf ila. Qahramon hikoya so'ngida Xizrga duch keladi. Uning Xizr ekanini anglamaydi ham, lekin... “lekin hikmatga yetib kelganimda, tegram o'zim kabi, tafakkuri va irodasi bilan o'sha yuksakliklarga yetib borolmagan, shu sababdan ham Xizrning yoki biror avliyoning inoyatiga sazovor bo'lishni orzulagan kishilar bilan to'la edi”, deb iqrar bo'ladi. Johillik bilimsizlikda emas, tafakkursizlikda, deydi hikoya qahramoni.

“Bog'i Eram hikoyasiga ko'chib o'tadi, unda esa ko'zga ko'rinmas umr charxpalagini ilg'ab qolamiz. Hikoya qahramoni – onasi yopgan issiq nonlarni ariqning zilol suviga botirib o'ynayotgan bolakayga keksalik ufqiga yetib borgan Xolmuhammad buva ro'para kelyapti. “E voh, o'zim ham ariqdagi suvday oqdim-ketdim”, dedi chol va uyalmay-netmay ho'ngrab yig'lab yubordi”. Hikoya so'ngida yana o'sha charxpalakkka duch kelamiz – endi qahramonimizning o'zi qartaydi, qartayganigacha ko'rgan- kechirgan turmush ikir-chikirlariga yozuvchi to'xtalmaydi, ular kundalik mayda-chuyda tashvishlar qatorida e'tibor tortmaydi, mana, qahramonning o'zi qariya, gavdasi egik, madori ketgan.. kunshuvoqda oftobda isinib o'tiradigan holda. Va tuproq ko'chadan hassasiga tayanib borayotganida ariqda

²⁸ Сатторова Г.Тизгинсиз туғёнлар ва тафаккур уйғунлиги // Исажон Султон насри бадиияти. –Тошкент. 2017. Б. 177.

o`ynayotgan ikki bolaga – kelajak avlodga duch kelyapti. “Axir, men ham bir mahallar onam yopgan nonlarni sizlar kabi ariqda oqizib yer edim... E voh ,o`zim ham shu ariqdagi nonday oqdim-ketdim-ku!” degan o`sha gapning xayolda hosil bo`lish sababiga yetib kelyapmiz: “Dilimda esa bu g`alati charxpalakning haybatidan bino bo`lgan qo`rquv...”²⁹.

Hikoyadagi ana shu ma`no va tuyg`u haybatlari jihatiga iste`dodli yozuvchi va olim Ulug`bek Hamdam shunday ta`rif bergan edi: “Manzil” – yuki benihoya og`ir hikoya... U boshdan- oyoq ramz asosiga qurilgan. Bunda safar – go`yo inson umri. Yo`lda uchragan gulzor-u cho`llar uning shodligi-yu g`amiga uchraydi. Manzil – orzulardan bino etilgan bino – sarob... “Oydinbuloq”da esa yozuvchi xuddi san`atkor fotograf singari ish ko`radi. Va o`zi saylab olgan cho`qqi – ilohiy mazmundagi on atrofida aylanadi, uni aks ettiradi. Asar zamirida muhabbatga ikki jinsning biologik intilishlaridan-da avval ilohiy ne`mat, ruhiy munosabat deb qarash yotgandek.

“Manzil” – yuki benihoya og`ir hikoya. Gap hajmda emas-u, lekin kishi negadir unda yukning zalvoridan larzaga tushgan qalbni qo`yarga yetgulik kengliklar bo`lishini qo`msaydi. Shu ma`noda, Isajon “Manzil”ning kengliklarini ocha bilsa, umri davomida hatto o`zida ba`zan uning bag`riga shoshib qochib qoladi, deging keladi.

“Manzil” boshdan- oyoq ramz asosiga qurilgan. Bunda safar – go`yo inson umri. Yo`lda uchragan gulzor-u cho`llar uning shodligi-yu g`amiga uchraydi. Manzil – orzulardan bino etilgan bino – sarob. Hikoyani o`qib bitirganimizdan so`ng o`zimizda qolgan mazmunni quyidagicha sharhlash mumkin; “Ey dil, o`tayotgan har bir lahzadan o`zligingga, o`zligingdan esa har bir lahzangga nazar sol. Sen chir aylanib qidirayotganing, aytaylik, tilsim tori, ajab emaski, shu oraliqda topilsa!”

“Otamga nimadir bo`ldi” hikoyasida muallif ro`zg`or tebratish ilinjida uyi, yaqinlaridan olisga ketgan ota taqdirini tasvirlaydi. Hikoya qisqagina. Personajlar ham ko`p emas. Asarda real voqealar bayoni romantik holat-kayfiyat tasvirlari bilan uyg`unlashib keladi, qolaversa, jahon adabiyotining ta`sir izlarini ham kuzatamiz. Hikoyadagi romantik tasvirlar ko`proq yozuvchining badiiy uslubiga tegishli. Asarda

²⁹ Исажон Султон. Ойдинбулок. –Тошкент. Ғ.Ғулом нашриёти, 1995. Б.59.

o'zbek oilasida otaning o'rni, uning tog'day suyanch ekani, u qayoqqadir ketganida xonadon huvillab qolishi romantik tuyg'ular ifodasi orqali ko'rsatiladi.

“Yozuvchi asarlarida voqeadan ko'ra insonning ruhiyati tahlili yetakchilik qiladi. Odatda, badiiy asarda ruhiy tahlil voqealar tasviriga xizmat qilsa, Isajon Sulton hikoyasida voqea-hodisa tasviri ruhiy holatni ochishga, o'quvchi tasavvurida bu holatning aniq, ta'sirli gavdalanishiga ko'maklashadi. Qahramon psixologiyasini yoritish, ko'nglini kashf etish yozuvchining bosh maqsadiga aylanadi”³⁰.

Yozuvchi qo'llagan har bir detalni puxta o'ylaydi, hikoyada biror tasvir shunchaki manzara uchun xizmat qilmaydi. Balki o'quvchi uning zamirida chuqur ma'no borligini his etib turadi. Jumladan, asarda otaning yelkalari haqida so'z yuritiladi. Ammo bu shunchaki yelka tasviri emas. Unda o'tirgan bolaning “... qo'llari osmonlarga yetadi. Ko'kdagi yulduzlarni bemalol etagiga terib ola oladi. Daraxtning eng uchidagi mevalarni qiynalмай uzishga qodir”. E'tabor bering, bu ifodalar shunchaki chizgilar emas. Badiiy manzaradan tasvirdagiga nisbatan teranroq va kengroq fikrlarni anglaymiz: “... Mevalar pishsa, yelkalariga chiqib olaman, daraxtning ho'v uchidagilargayam qo'lim yetadigan bo'lib qoladi. Tungi yulduzlar bodroqday sochilgan. Otamning yelkasiga chiqib olsam o'zim yana picha o'ssam, ularniyam to'plab olaveraman”³¹.

Ertaklarda sehr bor. Shu sababli ham ertaklar bolalarni mo'jizalar olamiga yetaklaydi. Isajon Sulton qalamga olgan muammoni ana shu sehrli olam bilan zidlantirib tasvirlaydi, muqoyasa etadi. Ana shu qarama-qarshilik yozuvchiga aytmoqchi bo'lgan asosiy fikr-g'oyani, maqsadni to'la ifodalash imkonini beradi. Yozuvchi nazarda tutgan zidlik qahramon ko'nglidagi iztirob, sog'inch ranglarini turlantiradi, uni bolalikning sehrli olamidan uzoqlashtiradi. Bolakay real hayot tashvishlariga ertaklar bag'ridan chiqib kirib keladi. Endi bolakayning dunyosida “... qorpar yog'ar, oq ayiqlar bo'kirib yurar, odamlar muzdan kulba qurib yashar edi.”

³⁰ Сатторова Г.Тизгинсиз туғёнлар ва тафаккур уйғунлиги // Исажон Султон насри бадийати. –Тошкент. 2017. Б. 177.

³¹ Исажон Султон. Ойдинбулок. –Тошкент. Ғ.Ғулом нашриёти, 1995. Б.124.

Asarda yozuvchi maqsadini amalga oshirishda peyzajdan juda o`rinli foydalanadi. Otaning olisga ketishi bilan bola qalbiga beriladigan mehrning issiq tafti ham kamayadi. Yozuvchi qorlar, muzpar, qirovlar haqida so`zlay boshlaydi. Bola tasvvuridagi dunyo endi o`z ko`rinishini o`zgartiradi. Uning xayoliga eshitgan, o`qigan ertaklaridagi oq dev, ko`k dev haqidagi fikrlar kela boshlaydi. Bola qalbidagi ana shu o`zgarishni yozuvchi mahorat bilan tasvirlab bera olgan. Asardagi har bir holat, vaziyat tasviri orqali yozuvchi o`z maqsadining muayyan nuqtasini yoritishni nazarda tutadi. Jumladan, hikoyadagi bolakayning tushi bayonida yozilishicha, hovlida bittagina boshqoq unib chiqadi. Hayotda bunday bo`lmaydi, ammo tushda hamma narsa bo`lishi mumkin. Yozuvchi asarga tush motivini olib kiradi. Tap-taqir yer bola ruhiy holati tasvirini kuchaytiradi. Otaning ketishidan xonadon huvillab qolmoqda. Buni yozuvchi o`tpar obrazi orqali badiiy-ramziy usulda yoritadi: “Uyimizdan otlar chiqib ketayotganmish, hammasi baland bo`yli, yollari hilpiragan, ammo egarlari bo`m-bo`sh otlar...”³².

Xalq og`zaki ijodida ot obrazi teran ma`noga ega. Or-nomus ramzi sifatida keladi. Demak, bolaning tushida otlarning chiqib ketishi oriyat masalasiga borib bog`lanadi, oilaning himoyasiz, suyanchiqsiz qolayotganiga o`quvchi e`tibori tortiladi, u bundan ogohlantiriladi. Hikoyada xalq og`zaki ijodining ta`siri seziladi. Ertaklardagi kabi, detallar manzarani oydinlashtirishga xizmat qiladi. Otasiga bir narsa bo`lsa, xuddi ertaklarda gul so`lib qolganidek, Bo`ynoq oldidagi “... suv ayniydi. Kuchuk yer tishlab irillay boshlayi”. Yozuvchi birgina so`z bilan tabiiy manzaraga jon bag`ishlay oladi: “Bo`ynoqni bostirmaga bog`ladim, oldiga eski chatnoq kosada suv qo`ydim”. “Chatnoq” so`zi ta`rifi tufayli tasvir yorishib ketadi. Chatnagan eski kosa, hovlining bir burchagidagi kuchuk turgan joy ko`z o`ngimizda namoyon bo`ladi.

Hikoyadagi bosh obraz – bola. U hamma narsa haqida fikrlaydi. O`zi savollar qo`yadi, javobni ham o`zi beradi. Ba`zan odamlarni, dunyoni anglolmay qiynaladi. Uning savollarida ham, javoblarida ham soddalik, go`daklarga xos beg`uborlik bor. Savol-javobida, fikrlash tarzida uning xarakteri aniq namoyon

³² Исажон Султон. Боғи Эрам. –Тошкент, “Шарк”. Б. 181.

bo'ladi. Bolalar obrazi ko'p asarlarda uchraydi. Mazkur hikoyadagi otasini qo'msab ko'ngli o'rtanayotgan bola o'zining kuzatuvchanligi, tabiat bilan muloqotga kirishib, uning tilini, fikrini tushunishi Ch. Aytmatovning "Oq kema" asar qahramonini yodimizga soladi. Ammo harakatchanligi, dadilligi bilan undan farq qiladi.

"Isajon Sulton so'zlarni qat-qat ma'nosi, rangi, ta'mi, ohangiga qarab tanlaydi. Jumladan, quyidagi tasvirda otaning ruhiy holati o'quvchi ko'z o'ngida to'la namoyon bo'ladi: "Gapiradi – o'ksinadi. Gapiradi – termuladi. Gapiradi, ko'zining yoshi duv-duv oqadi". Umuman, yozuvchining hikoya qilish uslubi o'ziga xosligi sujet, kompozitsiya obraz uslub yaratishda turli tajribalarga dadil kirishganida ham ko'rinadi. Hikoyani o'qiganda go'yo yozuvchi voqealarni bayon etib borayotgandek tuyuladi. Ammo yaxshiroq e'tabor bersak, u hamma joyda qahramonlari bilan birga yuradi, yozuvchi "men"i yaxlitlik hosil qiladi. O'quvchi ko'z o'ngida asar qahramonlarigina harakatlanadi. Ularning ko'rgan-kechirganlarini yozuvchi ham yuragidan o'tkazib his qiladi, ular bilan birga yashaydi, suhbatlashadi, ko'ngliga kiradi. M. Baxtin muallif va qahramon munosabatini tekshirib, ularni uch turga bo'ladi: birinchidan, yozuvchi qahramonni boshqarmaydi, qahramon o'z xarakteridan kelib chiqib, o'quvchini muayyan xulosaga olib boradi. Ikkinchidan, qahramonlar yozuvchi istagiga binoan harakat qiladlar, unga bo'ysunadilar. Uchinchidan, qahramonning o'zi muallifga aylanadi, sahnada rol o'ynayotgandek o'z hayoti, qismati ichida yashaydi. Isajon Sulton asarlarida ko'pincha uchinchi turga mansub uslubdan foydalanganiga guvoh bo'lamiz"³³.

Hikoyada bolaning ichki tuyg'ulari otaning "...oyoqqa tursam, o'sha zahoti uyimga ketaman. Ularga orzu-havas qilgan narsalarimdan ham ko'ra o'zim kerak ekanman-ku", degan qarorga kelishiga turtki bo'ladi. Ammo yozuvchi hikoyani xulosalamaydi, taqdirning yurish qiyin so'qmoqlaridan ketayotgan kishiga o'z aqli bilan qaror qabul qilishiga imkon qoldiriladi. Zero, har kimning ulkan mashaqqatlar evaziga ochgan o'z so'qmog'idan oldinga intilishi oily orzular, yorug' maqsadlar sari qurgan yuksak pillapoyasidir.

³³ Расулов А. Акслар фалсафаси // Исажон Султон насри бадиияти. –Тошкент. 2017. Б. 32.

Ko`rinadiki, hikoyada yozuvchi so`z bilan ifodalanadigan va so`zsiz ifodalanadigan inson ruhiyatining botiniy kechinmalarini anglashga intiladi. Turmushni boricha tasvirlaydi, qoralamaydi ham alqamaydi ham. Yakuniy xulosa ham chiqarmaydi. Shunchaki, o`quvchini asarida sertashvish hayot sari yetaklaydi. Qahramon bilan yonib yashash dardini kitobxonga yuqtiradi. Bu esa badiiy mahoratga xos fazilatdir.

“O`rmondagi kulba” nomli hikoyasi ham o`ziga xos asarlardan biri sifatida e`tiborimizni tortadi. Har bir davr insonning ma`naviy-ruhiy qiyofasining shakllanishi yoki o`zgarishi uchun ta`sir qiladi. Bu asar qahramonlari ham davrga mos ravishda ruhiyatlari shakllangan. Ammo hikoyada biror bir tuzum yoki uning ta`siri haqida gapirilmaydi. Hikoya voqealari uzoq o`rmondagi kulbada kechadi. Qahramonlarning bu o`rmonga qanday kelib qolganligi kitobxonni qiziqtiradi va asarda kirish so`z sifatida berilgan. “Ey ruh! Fitratning o`rmonlarida kezingan, ezilgan, ozurda ey ruh!” degan xitob uni sergaklantiradi. Demak, kulba fitrat o`rmonida, ya`ni insonning ko`nglida joylashgan. Unga qilingan safar har kimning o`z ko`ngil mulkiga qilgan safaridir. Shu tobda kitobxon ham fitrat o`rmonida “eski zindonidan chiqqan” qahramonlar bilan birga sayohatga chiqadi”³⁴.

Asarni badiiy jihatdan mustahkamlovchi vosita uning mantiqiy markazi hisoblanadi. Asarning mantiqiy markazi – mimika, obraz, portret, voqea, detal, avtor munosabati, konflikt bo`lishi mumkin. “O`rmondagi kulba” hikoyasining mantiqiy markazini qahramonlarning ichki ruhiy konfliktlari tashkil etadi.

Badiiy asarda qahramonning ichki konflikt imkoniyatlarini yozuvchi Xurshid Do`stmuhammad ruhiy koliziyalar, shaxs va holat, shaxs va muhit, shaxs-hozir-o`tmish, orzu-armon-pushaymon-umid oralig`idagi botiniy ziddiyatlar, deb tasniflaydi. Ushbu tasniflarga asoslanadigan bo`lsak hikoya butunlay qahramonlarning ichki olami ziddiyatlaridan tashkil topgan. Hikoya an`anaviy sujet va kompozitsion qurilishga ega emas. “Adib inson qalbining sirli, tushunish mushkul bo`lgan jihatlarini turli rakurslarda tasvirlaydi. U muqaddima, yerto`lada, chorlov, kelgan kim, xotima, roviy

³⁴ Сатторова Г.Тизгинсиз туғёнлар ва тафаккур уйғунлиги // Исажон Султон насри бадийати. –Тошкент. 2017. Б. 177

so`ng asosan, qahramonning o`z-o`zini taftish qilishi voqealari asosiga qurilgan. O`g`il ko`nglidan kechgan: “Qara-ya, o`rmon jonga rohat baxsh etarkan-ku”, degan iqrori har kimsa o`z qalbi ya`ni meni bilan yolg`iz qolgandagi holatga ishora qilsa, “Shu yaqin o`rtada eski, kimsasiz bir kulba bor. Men uning yerto`lasiga tushishim kerak”, degan qat`iyati odamning eng yaqin sirdoshi, darddoshi o`z ko`ngli ekanligi, lekin shunday bo`lsa ham inson har doim ham ko`ngil qatlarini qay biridir e`tiborsiz qolishini eski kulbaga, sir-u sinoatlar qat-qat bo`lib yotgan Ko`ngil tubini Yerto`laga qiyoslaydi. Uni zax hidi anqiyotgan joy deya ta`riflaydi. Zax hidining anqishi (ma`naviy-ruhiy tanazzul) , yerto`la (qalbga chuqur kirib boorish), uning zinalari (insonning ichki ma`naviy olami) kabi jummalarning har biriga ramziy ma`no yuklaydi. Yozuvchi qahramonlar ruhiy olamini ochish uchun ichki monologlardan, hissiy harakatlardan, psixologik tasvirlardan unumli foydalanadi. “Ichimdagi surur qanday paydo bo`lganligini bilmasdim” – o`g`il holati. “ Umr bo`yi dala tuzda ovvorai sarson, bolam-chaqam deb zahmat chekkan bir ayolman-u, kutulmaganda menga “O`rmonga bor” dedilar” – borish-bormasligi haqida hali qat`iy fikrga kelmagan Ona holati. “Tashvishim boshimdan oshib yotibdi-yu, o`rmonda balo bormi menga” – otaning norozi ruhiy holati. Qahramonning o`z-o`zi bilan bo`lgan bu suhbatlar ular xarakteridagi o`ziga xoslikni ochib berishga sabab bo`ladi. Bu holatlarga e`tiborimizni qaratar ekanmiz, qahramon shaxsi va holati ushbu ko`chirmalarda yorqin ifodalanganligini kuzatamiz. “ O`zi yerto`laga tushishni o`lgudek yomon ko`raman” – o`g`il, “Egalari qani, deya xavotirlanib ichiga mo`raladim” – ona, “Bu yerga inson qadami yetmaganga o`xshaydi” - ota. Shaxs va muhit o`rtasidagi ziddiyatlar: “ Nimqorong`i, keraksiz ashqol-dashqonlar betartib qalashib yotgan, zax hidi anqiyotgan joy tasavvurimda jonlandi” – o`g`il, “Har holda, uy egalari saranjom-sarishta ekani ko`rinib turibdi” – ona, “Uy havosi dim... Stol ustida qizg`amtir shisha guldon, ichidagi suvi loyqalanib sasib ketibdi” – ota. Shaxs, hozir, o`tmish ziddiyatlari: “Besh yoki oltita pillapoyasi bor-ov” (o`g`il), “Zinalarning oxiri ko`rinmaydi” (ona), “Yetti yoki sakkizta pillapoya bosib pastga tushdim” (ota). Har uchala shaxs berayotgan bu pillapoyalar insonning o`z botiniga kirib borib, o`z-o`zini taftish qilishiga ishoradir”³⁵.

³⁵ Сатторова Г.Тизгинсиз туғёнлар ва тафаккур уйғунлиги // Исажон Султон насри бадийяти. –Тошкент.

Asarni o`qish davomida bu kabi misollarni ko`plab uchratishimiz mumkin. Adib bu hikoyada qahramonlarni shunchaki yaratmagan, balki ularni kashf etgan. Asar qahramonlari O`g`il, Ona, Ota. Asardagi har uchala obrazga ham yozuvchi katta ramziy ma`no yuklagan. Hikoyadagi birgina Ona obrazini oladigan bo`lsak, u hayot haqidagi tushunchalarini tafakkur qilishi bilan birga ularni qalb chig`irig`idan o`tkazadi. Ona hayotda yaratuvchi ekanligi bilan oilaning mavjudligini saqlovchi, uning muqaddasligini boshqalarga ham anglatuvchi ekanligiga ishoradir. Ayolning o`z otasi ruhi bilan uchrashuvida uning savollariga javoban jim turishi-yu otaning o`zi bu savollarga javob berishi ham aslida ayolning ichki tug`yoni va bo`layotgan voqea-hodisalarga aqlan munosabatda bo`lishidir. Asarda voqealar tavsiloti emas, qahramonlar ruhiy tahlili birinchi o`rinda turadi.

Bu haqda adabiyotshunos olim A. Rasulovning hikoyaga yozgan so`zboshisida ham ta`kidlangan. Darhaqiqat, o`g`il hayot quvonchlari-yu tashvishlari haqida qayg`urmaydi. Uni faqat shodliklardan iborat deb o`ylaydi. Ona esa quvonch-u qayg`ular orasida tarozi, oila muvozanatini saqlovchi. Ota esa mutlaqo ularning teskarisi, yolg`izlikka do`st tutingan. U boshqalardan madad so`ramaydi, hatto kutmaydi. Chunki u erkak. Bu uning hayot falsafasi.

Yozuvchi ana shu bir oila timsolida butun insoniyatga daxldor bo`lgan falsafani o`rtaga tashlaydi. Inson yashar ekan, uning ko`nglida orzulari, armonlari, ba`zida esa qilgan ishlaridan pushaymonliklari bo`ladi. Adib qahramonlar holatini tasvirlar ekan, “orzu-armon-pushaymon-umid oralig`idagi botiniy ziddiyatlar” ga keng o`rin beradi.

“Yo`qotib qo`yganman deb ezilib yurardim. Mana bu otamning to`ni emasmi? Shiftga eski beshik ilib qo`yilibdi”. Yozuvchi ushbu fikrlar bilan bizga o`zligimizga qadriyatlarimizga qaytdik, deb izoh bermaydi. “Yo`qotib qo`yganman, otamning to`ni, eski beshik” kabi soda va samimiy jumlar o`quvchi qalbida shu tuyg`ularni uyg`otadi.

“Zax tuproqni selgitish uchun ancha mehnat qilish kerak. Tuynuk-derazalarni ochib, yaxshilab shamollatmasa bo`lmaydi. Hammasining eshigiga “kirish mumkin emas” deb yozilgan taxtachalavha ilib qo`yilgan”³⁶. Bo`yoq qizil rangda. Adib ushbu jummalarni nega ota tilidan hikoya qiladi? Chunki ota – oila qo`rg`oni. Qo`rg`onning mustahkamligi, osoyishtaligi unga bog`liq. Adabiy qahramon muayyan davr kishisining barcha xususiyatlarini o`zida aks ettiruvchi vosita sanaladi. “Zax tuproq, kirish mumkin emas, qizil rang” ham ota holati orqali muayyan davrni ko`rsatuvchi vosita sifatida qo`llangan. Zax tuproqni selgitish uchun qilinadigan mehnat-u qizil rangdagi eshiklarni buzib kirishga faqatgina u qodir.

“So`qmoqdan qachondir aroba yurgan – g`ildirak izlari o`rni taqir, tuproq, quruq, ammo izlar orasida o`t gurkirab o`sibdi”. Yozuvchi ushbu hikoyaning har bir so`zi qatiga katta-katta ma`no yuklaydi. Adib asarni bir oila a`zolari asosiga qurar ekan, unga Onaning otasi ruhini ham olib kiradi. Bu ayol ruhiyatidagi ikkilanishlar, farzandga, oilaga, erga munosabatni yorqinroq ochiosh uchun keltiriladi. Ota ruhi tomonidan berilgan savollariga qizi emas, ruhning o`zi javob beradi. Demakki, yozuvchi shu obrazni asarga olib kirmasdan, ayolning otasi bilan ko`nglida qilingan suhbat tarzida berilganda ham hikoya badiiy qimmatini yo`qotmagan bo`lard.

Hikoya yakunida berilgan Roviyo so`ng so`zida ham adib sharqona falsafaga tayanadi. Uning qahramonlari “... yuqoriga- oftob nur sohib turgan hayot bag`riga qaytadi”. O`quvchi esa “g`alati o`rmonning... chuqur-chuqurlariga yashirib qo`yilgan ma`nolar qarshisida lol-u hayron” qolaveradi.

Boshdan oxirgacha sodda va qisqa ichki nutq, o`y-mulohazalar asosiga qurilgan bu hikoya g`oyasini anglash uchun kitobxon nafaqat o`qishi, balki uqishi kerak. Shundagina u qahramonlarning tizginsiz tug`yonlarini o`z tafakkur qudrati ila his qiladi. Xulosa qilish mumkinki, badiiy niyatning salmoqdorligi, voqelik mohiyatiga chuqurroq kirib borish, inson ichki olamini anglashga intilish Isajon Sulton hikoyalarining asosiy jihatlaridan biridir. U inson qadri, azaliy qadriyatlar, odamlararo munosabat izlarini turmush zarbalariga duchor bo`lgan turfa taqdirlar ko`nglidan

³⁶ Сатторова Г. Тизгинсиз туғёнлар ва тафаккур уйғунлиги // Исажон Султон насри бадийати. – Тошкент. 2017. Б. 179

izladi. Uning hikoyalarida muallifning tiyrak va bezovta nigohi, inson ko'nglining nozik tovlanishlarini sinchkovlik bilan ilg'ash hamda yorqin aks ettira bilish mahorati yaqqol sezilib turadi. Isajon Sulton yaratgan rangin dunyoning oddiy odamlariga xos favqulodda jihatlar kitobxon qalbiga juda-juda yaqinligi bilan diqqatga loyiqdir.

2.2. Adibning hikoyalarda ramziy obrazlar orqali inson xarakterini tasvirlash mahorati

Hozirgi zamon jahon adabiyotida bo'lgani singari, hozirgi o'zbek nasrining ham o'ziga xos taraqqiyotini belgilaydigan muhim tamoyillardan biri ham folklor va yozma adabiyot o'rtasidagi janrlararo munosabatlarning yangicha asnoda bo'y ko'rsatishi bo'lib, bunda folklor poetikasi badiiy asar strukturasi shakllantiruvchi kompozitsion asos vazifasini bajaribgina qolmay, balki xalq ijodiga xos badiiy tasvir vositalari va epik syujetlar arsenalini asarga beqiyos milliy-etnografik kolorit ham baxsh etishi kuzatilmoqda. Bu holat olamni idrok etishning eng ko'hna shakllaridan biri hisoblangan mifologik tasavvurlar tizimi va mif syujetlarining badiiy kontekstdagi o'ziga xos ifodasida, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mif nafaqat borliq olam va voqelikni asotiriy timsollar vositasida ifoda etishning yorqin namunasi, balki keng qamrovli falsafiy-axloqiy potentsialni o'zida jamlagan nomoddiy madaniy meros tizimi bo'lganligi uchun hatto eng zamonaviy muammolarni ham shartli-ramziy shakllarda ifodalashga imkon beruvchi madaniy fenomen hisoblanadi. "Hozirgi jahon adabiyoti, shu jumladan, bugungi o'zbek nasrida mifologiya arsenaliga bot-bot murojaat qilinishi, adib o'z badiiy niyatini amalga oshirishda xalqimizning qadimgi mifologiyasiga xos asotirik syujetlar an'anaviy folklore mativlari va obrazlarga murojaat qilishlarining boisi ana shunda deb o'ylaymiz. Jahon adabiyotida badiiy mifologizm usulining dimifologizatsiya va mifologizatsiya singari shakllaridan foydalanishi holati K.Volfning "Medeya", J.Joysning "Uliss", D.G.Lorensning "Qanoli ilon", J.R.R.Tolkierning "Uzuk

hukmdori” kabi asarlarida, shuningdek atoqli adib Ch.Aytmatov ijodida yaqqol kuzatiladi. Yozma adabiyotdagi badiiy mifologizm poetic shartlilikning o‘ziga xos shakllaridan biri bo‘lib, qadimgi mifologik syujetlar va obrazlarning matn kompozitsion qurilishidagi structural modifikatsiyasidir³⁷. Bunda muallif mifologik kodlarning ramziy-shartli talqini vositasidasvirlanayotgan voqelik zamiridagi ijtimoiy-ma’naviy muammolar haqida qahramon ruhiyatining murakkab qatlamlarini badiiy tahlil qila oladi. Ayni holatni yozuvchi I.Sultonning “Bog‘i Eram”, “SHamolli kecha” kabi qator hikoyalarida ham ko‘ramiz.

Xususan, I.Sultonning “Bog‘i Eram” hikoyasi qahramon o‘zining beg‘ubor bolalik kezlarini eslar ekan, tabiatning bulg‘anganligi, bir zamonlar zilol suv sharillab oqqan ariqlarning ifloslanganligidan dili og‘rigan Xolmuhammad buva bilan uchrashuvini shunday xotirlaydi: “Chol yonimga kelibuyimizga picha turmullib turdi. Saldan keyin esa uning ko‘zlari yoshlanganligini ko‘rdik. “Nimaga yig‘layapsiz, buva? – dab so‘radim men. Chol soqoli titrab: “Bir mahallar men ham onam yopgan nonni shunaqa oqizib yer edim, o‘shani eslayapman, bolam. Evoh, o‘zim ham shu ariqdagi nonday oqdim ketdim”, - dedi. Non yegisi kelayapti deb o‘yladimmi, har holda, o‘zimning suvga bo‘kkan nonimni olib unga uzatganim esimda. Chol bo‘lsa nonni oldiyu hech uyalib netmasdang xo‘ngrab yig‘lab yubordi”³⁸. Hikoyachi-qahramon yig‘lab yo‘lini davom ettirayotgan Xolmuhammad buvaning ortidan ergashadi. Oldida duch kelgan ariqdan hatlashi bilan ko‘z o‘ngida ajib bir afsonaviy go‘shaning g‘aroyib manzarasi namoyon bo‘ladi: “Qopalari tilladan, tutqichlari billurdan bo‘lga bir bog‘ning qarshisida ko‘rdim o‘zimni. Qopqa yonida billur halqani tutib turgan men qatori kichik bolakay menga qarab kular va ichkariga qarab imlar edi. Oldinga ikki qadam bosib, boqqa mo‘raladim, u yerda nimalarni ko‘rganimni aytolmayman, aytganim bilan qanaqadir zaminiy narsalarga o‘xshab qolaveradi. U yerdagi daraxtlar, bizning ko‘rganimiz odatdagi daraxtlatga o‘xshab ketgani bilan,

³⁷ Отажонова М. “Боғи Эрам” ҳикоясида аниматик мифология ва унинг хусусияти // Исажон Султон насри бадийати. –Тошкент, “Шарқ”, 2017. Б. 196.

^{38 38} Исажон Султон. Озод. Роман ва ҳикоялар. –Тошкент, “Шарқ”, 2012. Б. 368.

mutloq boshqacha edi. U yerdagi qushlar, suvlar... Bu bog‘ samoviy edi! g‘oyatda go‘zal edi. Bu go‘zallikka mos ta’rif topolmay o‘rtanaman”³⁹.

Yozuvchi o‘zbek folklorida qahramonning o‘zga olamga safari to‘g‘risidagi mifologik tasavvurlardan ijodiy foydalanishda “ariq” detalidan samarali foydalangan. Bu o‘rinda qo‘llanilgan “ariq” arxitepi qadimgi mifologiyada “o‘z” va “o‘zga olamlarni birlashtirib turuvchi asotirik vosita, boshqacha qilib aytganda, inson yashaydigan dunyo bilan mifologik kuchlar makoni hisoblangan “o‘zga olam” o‘rtasidagi chegara vazifasini o‘tagan. Shuning uchun ham hikoya qahramoni ariqdan hatlashi bilan “o‘zga olam”ga o‘tib qoladi va uning ko‘z o‘ngida “Qopqalari tilladan, tutqichlari billurdan bo‘lgan bir bog‘”, ya’ni Eram bog‘i namoyyon bo‘ladi. Yozuvchi bu g‘aroyib bog‘ning qahramon hayolida namoyon etilishi orqali qadimgi mifologik tasavvurdan shartli-ramziy fon sifatida foydalanadi hamda ekologik holatlar tufayli atrof muhit o‘zining birlamchi go‘zalligidan kun sayin mosuvo bo‘lib borayotganidan dili xun bo‘lgan bugungi davr kishisining ruhiy kechinmalarini o‘ziga xos tarzda ifodalaydi. Bunda makon va zamonlarning murakkab kombinatsiyasi orqali mif bilan real voqelik hayoliy uydirma bilan hayotiy haqiqat sintezi yuzaga kelganligi kuzatiladi.

Xalqimizning mifologik tasavvurlariga ko‘ra, Eram bog‘i parilar yurti bo‘lib, tarifiga so‘z ojiz bo‘lgan afsonaviy bog‘ Kohi Qof, ya’ni Qof tog‘i orasida joylashgan mifik joy bo‘lib, parilar maskani deb talqin qilinadi. Uni devlar qo‘riqlab turar emish. Ozining g‘oyat go‘zalligi betakror tabiati bilan alohida ajralib turadigan bu bog‘da parilar istiqomat qiladi. Bog‘i Eram tog‘risidagi mifologik tasavvurlar o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiga arab folklori variantlari orqali o‘tgan. Ozbek xalq dostonlarida esa Iram yoki Bog‘i Eram deb bu epik makon parilar yutri deb yuritiladi. Mifologik tasavvurlarga ko‘ra, bu boshqacha qilib aytganda, epik an’anaga ko‘ra, Ko‘hi Qof zamin bilan Eram bog‘i oralig‘ida chegara sifatida talqin qilinadi. Arab- islom manbalarining o‘lkamizda keng yoyila boshlashi munosabati bilan qadimgi arablar mifologiyasiga mansun turli-tuman asotiriy obrazlar, shu jumladan, Bog‘i Eram kaqidagi mifologik tasavvurlar ham o‘zbek folkloriga, keyinchalik esa yozma

³⁹ Исажон Султон. Озод. Роман ва ҳикоялар. –Тошкент, “Шарк”, 2012. Б. 367.

adabiyotga ham o'tgan. Yozuvchi Isajon Sulton inson ruhiyatining hamisha oniy go'zallikka oshufta ekanligini tasvirlash maqsadida xalqimizning Eram bog'i to'g'risidagi qarashlarini o'z asariga mahorat bilan singdirib yuborgan.

Hikoyada tasvirlanishicha, bu ajoyib bog' bolani o'ziga shu qadar maftun etadiki, u ushbu jannatmakon go'shaga qadam qo'yganidan faqat ertaklardagina tasvirlanadigan mo'jizakor narsalarni ko'radi. "Bog' meni o'ziga shu qadar maftun etdiki, oldinga beixtiyor yana qadam qo'ydim. Tag'in bir qadam qo'ysam bog' ichkarisidaman".

Xalqimizning mifologik e'tiqotiga ko'ra Eram bog'i olamdagi enggo'zalva orasta go'sha bo'lib, nafaqat parilar balki Anqo, Semurg' singari asotirik qushlar ham shu maskanni o'ziga makon qilgan. Afsonalarga ko'ra bog' oltin kumush va turfa javohirlardan bunyod etilganligi uchun u yerda uchib yurgan ninachilar ham oltindan ekanligi o'quvchida shubha uyg'otmaydi. Bu o'rinda hikoya qahramoni- bolaning e'tiborini tortgan "zar qanotli Semurg'" obraziga to'xtalib otish kerak bo'ladi.

"Ma'lumki, Semurg'- qadim ajdodlarimizning ibtidoiy tushunchasiga ko'ra, totemistik homiylik timsoli, botirlarga madadkor bo'lmish ulkan qush. Bu go'zal lirik obraz qachon paydo bo'lganligini aytish qiyin, ammo Semurg' bog'liq qadimiy syujetlar Sharq xalqlari tarixida keng tarqalgan. U qahramonni ulkan qanotiga mindirib, Yer osti dunyosiga olib tushush yoki Zaminga chiqarib qo'yish vazifasini uddalay oladi. Semurg' haqidagi dastlabki ma'lumotni, Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da uchratamiz, asarning 14-yashtida tasvirlanishicha, "Seana merug'a" degan bahaybat qush Vorukasha dengizining o'rtasidagi "hayot daraxti"ning tepasida uya qurgan. Bulutdek ulag'vor qanotlari bilan hayot daraxtini yovuzlik kuchlaridan kimoya qiluvchi Semurg' haqidagi ilk miflar bizningcha Vorukasha yoki "Qirg'oqsiz dengiz" deb ataluvchi Orol dengizi bo'yida, ya'ni qadimga Xorazm vohasida yaratilgan"⁴⁰.

Sharq xalqlari folklori va mifologiyasini yaxshi bilga Isajon Sulton o'zining hikoyasida qahramon ko'z o'ngida namoyon bo'lgan g'aroyib go'sha tasvirini bayon

⁴⁰ Отажонов М. "Боғи Эрам" ҳикоясида аниматик мифология ва унинг хусусияти // Исажон Султон насри бадиияти. –Тошкент, "Шарк", 2017. Б. 197.

etar ekan, arxaik mifologiyadagi qush va “hayot daraxti” juftligi assatsiatsiyasini saqlashga harakat qilgan. Hikoyada tasvirlanishicha, “qopqaning shundoq yonginasida judayam ulkan bir yashil daraxt” bor bo‘lib, uning “shoxlari bulutlar orasida ko‘zga ko‘rinmay ketgan” edi. Bu lavhada tasvirlangan “yashil daraxt” arxaik mifologiyada uch olam- Ko‘k, Zamin, Yer osti dunyolarini o‘zaro birlashtirib turadigan “hayot daraxti”ning badiiy talqinidir.

Hikoyada g‘aroyib bog‘dagi daraxtning rangi yashil ekanligining alohida ta’kidlanishi ham bejiz bo‘lmay, kosmogonik mifologiyada aloqador detal hisoblanadi. Chunki mifga ko‘ra, “hayot daraxti” mangu yashil bo‘lib, doimo o‘sib turadi, hech qachon qurimay va hamisha yashnab turadi. Uning “hayot daraxti” deb atalishining boisi ham ana shunda. Yozuvchi Isajon Sulton Hayot darahti to‘g‘risidagi miflar, animastik e’tiqodlar, jonning ta’nanan boshqa joyda mavjud bo‘la olishi to‘g‘risidagi etiqodiy qarashlarni o‘z hikoyasiga mahorat bilan singdira bilgan. Hikoyada tasvirlanishicha, u yerga kirib qolgan qahramon shoxlari osmonga bo‘y cho‘zgan ulkan yashil daraxtga nazar tashlar ekan, “har zamon- har zamonda uning shohlaridan yaproqlar uzilib tushayotir. Mana shundoqina oyog‘im ostiga sarg‘aygan bir barg kelib qo‘ndi. Men egilib qarab bargda yozuv borligini ko‘rdim. Sarg‘ish tomirchalari bo‘rtib turgan yaproq sirtiga “Xolmuhammad Ziyo o‘g‘li” deb bitilgan edi”.

Hikoyada yashil daraxt bargaining uzilib tushushi va unda kishi ismi yozilganligining tasvirlanishi ham animastik tasavvurlarning yzma adabiyotdagi o‘ziga xos talqinidir. Mifologiyada hayot daraxti bargaining uzilishi yerda yashaydigan biror kishi o‘lganligining alomati tarzida tasavvur qilingan. Ya’ni qadimgi odamning mifologik tafakkuruga ko‘ra, yerda qancha odam yashasa, “hayot daraxti”ning ham shuncha yaprog‘i bo‘ladi. Uning shoxlarida yangi barg o‘sib chiqishi chaqaloq dunyoga kelishidan dalolat beradi deb o‘ylaganlar. Binobarin, “Bog‘i Eram” hikoyasida yam “yashil daraxt” yaprog‘ining uzilib tushishi va unda “Xolmuhammad Ziyo o‘g‘li” degan bitikning mavjud bo‘lishi bu o‘rinda nomi zikr etilgan kishining umri poyoniga yetganining ifodasi sifatida talqin qilinadi. Bedazor adog‘idagi ariqdan hatlagach, qotib qolgan va o‘z hushini yo‘qotgan hikoyachi-qahramon onasining bag‘rida o‘ziga kelgach, omasining ruhi siniqligidan o‘sha kuni hamisha ko‘chaning

boshida, lohsuvoq uyining oldida o'tiradian Xolmuhammad buva vafot etganligidan xabar topadi.

Hikoya qahramoni bedazor ortida nogahoniy tarzda namoyon bo'ladigan bu g'aroyib go'shani yana uch marta ko'rishga muyassar bo'ladi. Har gal uning ko'z o'ngida shoxlari bulutlar uzra osmonga o'rlagan ulkan chinor, uning chirt-chirt uzilayotgan yaproqlari namoyon bo'ladi. Ikkinchi marta o'g'ilchasi bilan gilos yegani boqqa brogan qahramon gilozor o'rtasidagi sirli qopqa ochilib, o'sha bolaligida ko'rgan Bog'i eramga ko'zi tushadi. Bu bog'ning go'zalligidan sarxush bo'lib turganida oyog'i ostiga uzilib tushgan yaproqqa ko'zi tushadiyu, uning sirtida padari buzrukvorining ismi bitilgani ko'rib eti jimirlab ketadi. Yuragi bir nimani sezganday potirlab ura boshlagan qahramon shosha-pisha uyiga qaytadi. Muyilishdan ko'chasiga burilganida birdan tizzalari bo'shashib ketadi: darvozasi oldida mahalla kishilari to'planib turishar. Uning padari buzrukvori olamdan o'tgan edi. Qahramon bu bog'ni uchinchi daf'a ko'rganida yoshi anchaga borib qolgan edi. Erta kuzakning salqin epkinidan bahra olgan ko'yi pastak devordan qo'shnisining tomorqasiga nazar tashlagan qahramon bedazorning adog'ida yana o'sha o'ziga tanish manzaraga ko'ri tushadi: qarasa bog' eshigi oldidagi darbonning sochlariga oq oralabdi. Bog' ichidagi manzara ham kuzga monond edi. Deraza qarshisidagi mahobatli darahtdan ltin yaproqlar mangu bir jarang bilan bandidan uzilib, yerga sollana-sollana qo'nar edilar. Uzilib tushayotganlari son-sanoqsiz edi, yerning beti yaproqlar bilan qoplangan edi. "Har bir yaproqda bir ism yozilgan emasmi?" deb o'ylagan qahramon yana oyog'i ostiga kelib tushgan yaproqda eng yaqin do'stining ismi yozilganini ko'radi.

Hikoyaning so'ngida qahramon bu saodat bog'ini to'rtinchi daf'a ko'rganini shunday tasirlaydi: "Shohlardan hanuz yaproqlar uzilib tushayotirlar... Ajabo, bus afar uzilib tushadigan yaproqda kimning ismi yozilgan ekan? Mening ismimmi? Darbon ikkimiz bir-birimizga uzoq termulib qoldik . nihoyat u hassasiga tayangan ko'yi, xorg'in ovozda : - Endi kira qol, yetar ... - dedi"⁴¹.

⁴¹ Исажон Султон. Озод. Роман ва ҳикоялар. –Тошкент, "Шарк", 2012. Б. 367.

Yozuvchi hayot daraxti to'g'risidagi kosmogonik mif hamda odam jonining tanadan boshqa joyda mavjud bo'lishi haqidagi animatik mifologiya vositasida hayotning mohiyati- go'zallikka intilib yashashdan iboratdir degan g'oyani ilgari suradi. Hikoya qahramoni o'z umri mobaynida to'rt marta Eram bog'ini ko'rishi va har safar boqiy chinorning uzilib tushayotgan yaproqlaridan birida muayyan bir kishining umri poyoniga yetganidan xabar topishi tasviri orqali o'quvchini hayotning qadriga yetishga, bu olamdagi barcha mavjudotlari nabotot dunyosining taqdiri bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini idrok etishga, borliqning saodatbaxsh go'zalligini asrab-avaylashga chorlaydi. Hikoyaning mohiyatini anglashda uningoxirgi lavhasidagi bir detal, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bu hikoya qahramoni o'zi butun umr bo'yi intilgan manzili - Eram bog'i ostonasiga qadam qo'yishdan avval ariqqa non oqizayotgan bolakay tutqazgan bir parcha nondir. Qahramon ana shu "suvga bo'kkan bo'lsa-da, taftini yo'qotmagan bir bura non"ni kaftiga siqqancha go'zallik olamiga singib ketadi. Nazarimda, bu o'rinda bolakay tomonidan qahramonning bir parcha non- odamzodning qismatidir. Zero, yozuvchi ushbu hikoyani bir o'rinda "Qismat daraxti" deb nomlagani bejiz emas.

Aslini olganda miqlar ham qadimgi ajdodlarimizning borliq olam haqidagi o'y-xayollari va taassurotlarini o'zida mujassamlashtirgan "tarixiy xotirasi" hisoblabadi. Hikoyani o'qir ekansiz, yozuvchining badiiy mahorati tufayli mifologik makon bilan real voqelik tafsilotlari birlashib, insonning ko'z o'ngida kechayotgan voqea-hodisalar bilan uning ong osti hislari orqali yetib kelgan ko'hna asotiriy talqinlar ketma-ket joylashadi. Bu o'rinda olamning samoviy tuzilishini izohlash, tushuntirish maqsadida yaratilgan qadimgi kosmogonik mif unsurlaridan biri Eram bog'i haqidagi acotiriy syujet bilan odam jonining reinkarnatsiyasi, ya'ni bir shakldan boshqa ko'rinishga o'tishi to'g'risidagi animistik miqlarning poetik talqini badiiy matnning struktural-semantik asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Yozuvchi Isajon Sulton o'zining "Bog'i Eram" hikoyasida nafaqat asar qahramonining ruhiy kechinmalari balki davr muammolari, xususan, ekologik fojealardan ozor chekayotgan ona-zamin nidosini ifodalashda ham

halqimizning bokira tabiatning birlamchi nafosati va go'zalligini o'zida ifoda etgan mifologik tasavvurlardan uumli foydalangan.

Isajon Sulton obrazlarida ramziylikning o'ziga xos tarzda tasvirlanishini yaqqolroq o'rganish uchun boshqa hikoyanavislar asarlari bilan qiyosan o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. X.Do'stmuhammadning "Mehmon" va Isajon Sultonning "Bo'ri" hikoyalarini qiyosan o'rganamiz. X.Do'stmuhammadning "Mehmon" hikoyasi juda xokisor, hatto hasharotlarga ham ozor bermaydigan bo'sh-bayov yozuvchi tilidan bayon etiladi. Huddi shuningdek, I.Sultonning "Bo'ri" hikoyasi ham tashqaridan qaraganda, mo'min-qobil ko'rinadigan otaning bolaga bo'ri haqidagi hikoyasi tarzida bayon etiladi. Demak har ikki hikoya qahramon tilidan (roviy- qahramon obrazi bor) bayon qilinadi. "Mehmon"da shiftdan arg'amchi eshib tushgan o'rgimchak bexos qahramonning (yozuvchining) sochi ustiga tushib qoladi. Yozuvchi birovga ziyon yetkazish uyoqda tursin, hatto hasharotlarga ham ozor yetkazishni gunohi kabir hisoblaydi. Yozuvchi obrazi jamiyatda o'zgarishga zarar yetkazmaslikni o'zining asasiy yashash prinsipiga aylantirgan xokisor shaxs timsolidir. O'rgimchak tabiatda to'r solib, o'z o'ljasini pana-pastqamda jimgina kutadigan hasharot turi. Uning kundalik turmushi ko'zga ko'rinmas nozik iplardan yemishi uchun to'r to'qishdan iborat. O'zi jonini avaylab, o'zgaga ozor yetkazadigan hasharot hisoblanadi.

Hikoyada yuvosh, mehribon inson va o'rgimchak obrazlari qarama-qarshi tasvirlanar ekan, kitobxonda bu holat o'brazlarni qarshilantirish badiiy priyomi orqali assotsiativ obrazli tafakkurni aniqlashga yordam beradi. Darhaqiqat, hikoyada yuksak badiiy tafakkur fantaziyasi bilan assotsiativ obraz yaratilgan. Bu yuvosh yozuvchi va o'rgimchak obrazlaridir. O'rgimchak obrazi mulohim kishi obraziga zidma-zid yaratilgan bo'lib, hasharotning hatti-harakati, ya'ni yozuvchining qulog'idan kirib, miyasida gir aylanib, ko'zini teshib chiqishi jamiyatda o'z istaklari, maqsadlari, rejaları amalga oshishi uchun har qanday manfurlik, razillik, pastkashlikdan qaytmaydigan yovuz, ichiqora kimsalarning ramziy majoziy timsoli ekanini anglab yetamiz.

Xuddi shuningdek, "Isajon Sultonning "Bo'ri" hikoyasida ham bo'ri haqidagi otaning xotiralari esga olinishi orqali, Inson va Bo'ri ruhiyatidagi erk, ozodlikni

istovchi tuyg‘u birlashib ketganligini kuzatishimiz mumkin. “Yuzaki qaraganda, yozuvchi go‘yoki, insonning erki, ozodligi haqida emas, Otaning shaxsiy his-tuyg‘ulari haqida yozayotgandek. Aslida-chi? Shundaymikan? Hikoya shunchaki qishloqqa oralagan bo‘rini tutish, uni o‘ldirish, yoinki, shunchaki, qahramonning bo‘ri bilan uchrashuvi, xullas, xotiralarini bir ipga tizib berishdan iboratmikan? Assotsiativ obrazli tafakkur vositasida fikrlab ko‘ramiz”⁴². Albatta, hikoyaning qat-qatlariga berkitilgan badiiy haqiqatni anglab yetish uchun hikoya kontekstidan tashqariga chiqmaymiz. “Ichimda yovvoyi bir hayajon bosh ko‘taradi. Oy yog‘dusi ostida yastanib yotgan o‘sha kengliklarga borgim keladi. “Ammo bolalar katta bo‘lishyaptiku? Ularni o‘qitishim, uylab joylashim kerak... Ha, tashvishlarim mo‘l, ularni adolatlash mening otalik burchim, bajarmasam bo‘larmidi? Ammo bir nafasga bo‘lsa-da, tin olgim keladi-da. Miyamni chisillatar darajada og‘ir tashvishlar charchatganida, bir nafas, atiga bir nafasgina o‘sha yoqlarga ketsam... bepayon kengliklarda ko‘ksimni to‘ldirib bir hayqirsam, ozod-ozod, sarbast-sarbast chopsam deyman... Kim bilsin, butalar ostida nigohini menga tikib turgan o‘sha bo‘rini yana ko‘rsam ajabmas”⁴³. Bola-chaqali, tashvishlari mo‘l Otaning ichidagi yovvoyi his- bu erk istagi edi. Qahramon yillar davomida hayotida bir necha bor uchratgan mag‘rur, kelbatli bo‘ri yuragidagi ozodlik, erkinlikni o‘z qalbidagi ham his etib, uni yillar bo‘yi yuragining tub-tubida berkitib yashaydi. Aslida ham voqealar tafsilotlar, xotiralar shu bir so‘z, ya’ni inson erki, ozoligini ich-ichida doim sog‘inib yashaydigan inson haqida yozilgan hikoyadir. Bu badiiy-falsafiy g‘oya an’anaviy hikoyachilik tajribalaridan so‘ng to‘plangan, yangicha assotsiativ badiiy tafakkur orqali ifodalangan. An’analardagi hikoyalardagi badiiy g‘oyani ifodalash usuli, kuzatib turganimizdek, ikki yozuvchi X.Do‘stmuhammad va I.Sultonning “Mehmon” va “Bo‘ri” hikoyalarida tamomila yangilanishga yuz borgan. “Oyga qarab uvillagim kelayapti, xotin, - debman.Shundan so‘ng to‘liqib-to‘liqib rosa gapiribman. Bilasanmi, yuvosh biro dam bo‘lib yurishimga qarama. Umrin bo‘yi o‘sha bo‘ri tashqariga chiqib ketmasin deb urinib keldim. Endi

⁴² Кўчқорова М. “Мехмон” ва “Бўри” ҳикояларида ассоциатив тафаккур усули // Исажон Султон насри бадийати. –Тошкент, “Шарк”, 2017. , 186.

⁴³ Исажон Султон. Бўри // “Гулистон” журнали, 2014, 5- сон. Б. 16-19.

esa, hech bo‘lmasa shu kecha qorong‘isida, hamma uxlab dong qotib yotgan mahalda oyga qarab bir martagina bo‘lsin cho‘zib-cho‘zib uvillasam bo‘lmaydimi axir, dermishan...”⁴⁴.

Otaning yuragida tashqariga chiqishga harakat qilayotgan “bo‘ri” – ramziy ma’noda uning shaxsiy erki, istaklari, xohishlari timsoli. Qishloq bolalari bo‘ri bolasini tutib, o‘ldirib kelishganida, Ota go‘yo o‘zi o‘ldirilgandek, o‘zi tahqirlangandek bo‘ladi. Oila, bola-chaqa, ro‘zg‘or tashvishlari deya o‘zining shaxsiy orzularidan, ehtihojlaridan voz kechib yashayotgan INSON obrazi, bir so‘z bilan aytganda, kichik odamlar hayoti hikoyada bilinear-bilinmas nozik kinoya bilan kuzatiladi.

Yana shuni qayd etmoq joizki, juda qadimdan dunyo xalqlari mifologiyasida Bo‘ri totemi bilan bog‘liq qarashlar mavjud. Yosh tadqiqotchi Sh.Noralieva o‘zbek xalq folklorida (sehrli ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, marosim qo‘shiqlarida) bo‘ri obrazining badiiy xususiyatlarini o‘rganar ekan, shunday xulosaga keladi: “...o‘zbek folkloridagi bo‘ri obrazining tarixiy asoslari turkey xalqlar mifologiyasi, arxealogiyasi orqali jahon folklori tarixiga bog‘lanar ekan, barcha turkey xalqlar ijodidagi bu obrazning homiy sifatida badiiy talqin qilinishiga ana shu e’tiqodiy qarash va tushunchalar zamin yaratdi”. Yana bir tadqiqotchi A.Muhammadjonov esa bo‘ri kultining ildizlari va talqinlariga doir qiziqarli ilmiy kuzatuvlar qiladi.

Qolaversa, jahon adabiyotida bo‘ri timsoli turli falsafiy-ramziy ma’nolarda inson hayotiga parallel ravishda yoki tabiat va inson munosabatlarini ifodalash uchun muhim badiiy obraz sifatida yaratilib kelingan. Jumladan, buyuk adiblar H.Hesse (“Cho‘l bo‘risi”), Ch.Aytmatov (“Qiyomat”) asarlarida bo‘ri obrazi mahorat bilan aks ettirilganki, I.Sulton dunyo va o‘zbek adabiyotidagi mazkur adabiy tajribalardan qay darajadadir foydalana bilgan. “O‘zbek adabiyotida Inson va Bo‘ri munosabati, bo‘rilar hayoti, ularning o‘ziga xos ruhiy dunyosi haqida N.Norqobilov, M.Tilavovalarning ajoyib hikoyalari bor. Ammo I.Sulton qalamiga mansub “Bo‘ri” realistik hikoya namunalari bo‘lgan, “Ovul oralagan bo‘ri” (N.Norqobilov), “Ko‘kyol” (M.Tilavova) asarlaridan farq qiladi. I.Sultonning Bo‘ri timsoli tashqaridan qaraganda, tabiatning bir

⁴⁴ Исажон Султон. Бўри // “Гулистон” журналы, 2014, 5- сон. Б. 16-19.

jonzoti Bo'ri haqida yozilgandek taassurot qoldiradi. Ammo bu zohiriy ko'rinish, tashqi anglamdir. Hikoyaning botinida esa yuqorida aytganimizdek, Bo'ri ruhiyatiga xos "yovvoyilik", "ozodlik", "erk istagi", "yolg'izlik" hissiyotlari Inson uchun ham xosligi assotsiativ obrazli tafakkur usuli orqali urg'ulanadi. Bu beixtiyor olmon adibi H.Hessening "Cho'l bo'risi" romani qahramoni zohid Harri Helli ruhiyatini esga tushiradi. Gap shundaki, roman qahramoni ellik yoshga kirar ostonasida ma'naviy-ruhiy tanazzulga uchraydi. U o'z vujudida ikki ruh, Inson va Cho'l bo'risi ruhi yashayotganligini anglab yetadi. Aslida vujudida bo'ri ruhini his etgan qahramon yozuvchi H.Hessening o'zi edi. Hessening qahramoni "o'zidagi bo'rini yengishni va butunlay inson bo'lishni yoki insonlikdan vos kechib, bo'ri bo'lib bo'lsa ham, birlashgan, ziddiyatlarsiz hayot kechirishni istardi. I.Sultonning qahramoni ham o'z ruhida Bo'ri ruhini (erkaklikni sog'inadi) his etadi. Qahramonlar ruhiyatida zohir bo'lgan Bo'riga xos "erkinlik", "mustaqillik", "yovvoyilik", "vahshiylik", "yotsirash", "shavqatsizlik", "qonxo'rlik" kabi xilma-xil xususiyatlar H.Hesse romanida keng va atroflicha psixologik taxlil etiladi. Olmon adibi inson ma'naviy-ruhiy tanazzulini roman janri doirasida keng planda aks ettirgan bo'lsa, I.Sulton Bo'riga xos bitta xususiyat "erk ruhi"ni sog'ingan qahramon ruhiy tahlilini hikoya janrida ifodalaydi. H.Hessening qahramoni bo'ri ruhiyatiga xos "yotsirash", "jamiyatdan begonalashish"ni boshidan kechirib, insoniy aloqa-munosabatlardan uziladi"⁴⁵. Toki yosh qiz uning qalbida yashash ishtiyoqini uyg'otgunga qadar jamiyatdan "begona"lashib yashaydi. I.Sultonning qahramoni esa ruhiyatida bo'riga xos "erk istagi"ni his etib yashasa-da, bu tuyg'uni hayotida bir bor oshkor etadi. U jamiyatdan uzilmaydi. Har ikki yozuvchi qahramonlari ruhiyatida sodir bo'lgan ruhiy jarayon avvalo, har bir millat folkloridan ozuqalangan, deb o'ylaymiz. Bizningcha, bo'ri obrazining ramziy-falsafiy yangicha, zamonaviy talqinlarini berishda H.Hesse nemis xalq mifologiyasi (Yevropa) an'analarga ergashgan bo'lsa, I.Sulton turkiy xalqlar mifologiyasidagi (Osiyo) bo'ri totemi va kulti haqidagi azaliy folkloriy an'analarga sodiq qolgan. H.Hesse bilan I.Sultonning o'z qahramonlari ruhiyatida sodir bo'lgan

⁴⁵ Кўчкорова М. "Меҳмон" ва "Бўри" ҳикояларида ассоциатив тафаккур усули // Исажон Султон насри бадийати. –Тошкент, "Шарқ", 2017. , 187.

Bo‘riga xos ruhoniyl qatlamni kashf etishida ba’zi bir nozik tipologik mushtarakliklar ko‘zga tashlansa-da, ular xar biri alohida, original yaratilgan. Fikrimizcha, har ikki yozuvchi individual tarzda Bo‘ri obriziga murojaat etgan. Assotsiativ obrazlilik kitobxondan ijobiy faollikni, mushohada-mulohaza yuritishni talab etadigan badiiy shartlilikning bitta vositasi, usuli sanaladi. Assotsiativ obraz yaratish yozuvchi uchun ham, uni qabul etib, tushunish anglash, mulohaza yurita bilish bilan kitobxonga ham nisbatan murakkablik tug‘diradi. Ammo yozuvchi kitobxonni, tanqidchini o‘ylashga undasa, uni faqat ijobiy baholash kerak, deb o‘ylaymiz. U.Jo‘raqulov ta’kidlaganidek, “... bugunning uyg‘ongan adabiy ruhi osoyish ayyomi inqirozini tuymoqda. Inqiroz fasli mujdalari bugungi adabiy nasrimizda yorin namoyon bo‘lyapti. Bu albatta yaxshilikdan, bugungi adabiyotimizdagi o‘sishtan dalolat”⁴⁶ deb hisoblash mumkin. Biz ham olimning fikrlarini qo‘llab-quvvatlagan holda bugungi o‘zbek nasrida bo‘y ko‘rsatayotgan assotsiativ obrazli badiiy tafakkur usulini faqatgina ijobiy o‘sishtan darak. Deb bilamiz. Shu ma’noda, X.Do‘stmuhammadning “Mehmon” va I.Sultonning “Bo‘ri” hikoyalarida qo‘llanilgan assotsiativ badiiy tafakkur usulini yangilanish mujdalari sifatida baholash mumkin.

Ramzlar va timsollar orqali fikrlash badiiy mazmunni obrazli va ta’sirchan ifodalashga qaratiladi va asarning barcha komponentlarida muayyan semantik-uslubiy funktsiya tashiydi. Isajon Sulton hikoyalarida insonning hayotiy sarguzashtlari, murakkab qalb olami talqini orqali davr ruhi va shaxs ma’naviyati tasvirlanadi. Isajon Sulton ijodida ramzlar asarning shunchaki ta’sirchanligi va ifodaliligini oshirish uchungina emas, balki hikoyalarning g‘oyaviy-mazmunliy mundarijasini, ijtimoiy-estetik qimmatini kuchaytirishga ham qaratilgan.

Ikkinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

-Isajon Sulton inson obrazini yaratishda o‘ziga xos mahoratga ega adibdir. U insonning ichki olamini yorqin bo‘yoqlarda, real voqelik va badiiy talqin uyg‘unligida o‘z uslubiga xos tarzda tasvirlaydi.

⁴⁶ Жўракулов У. Оsoyish айёми // XX asr ўzbek adabiyoti masalalari. -Toshkent, “Fan”, 2012. B. 158.

-Isajon Sulton hikoyalarida SHarq va G'arb nasrining sintezini kuzatamiz. Adib ijodida inson obrazi talqinlari ota, ona, farzand obrazlari misolida qator hg'ikoyalar tahlili asnosida o'rganildi. "O'rmondagi kulba", "Otamga nimadir bo'ldi", "Manzil" kabi hikoyalarida inson xarakterining turfa chizgilari badiiy talqin etiladi.

- Isajon Sultonning "Bog'i Eram", "Bo'ri" hikoyalarida insonning hayotiy sarguzashtlari, murakkab qalb olami talqini orqali davr ruhi va shaxs ma'naviyati tasvirlanadi. Isajon Sulton ijodida ramzlar asarning shunchaki ta'sirchanligi va ifodaliligini oshirish uchungina emas, balki hikoyalarning g'oyaviy-mazmuniy mundarijasini, ijtimoiy-estetik qimmatini kuchaytirishga ham qaratilgan.

XULOSA

Bugungi adabiy-estetik tafakkurdagi o'zgarishlar o'zbek nasrining g'oyaviy-mazmuniy mohiyatida Inson tasvirini, badiyatida haqqoniylik, ta'sirchanlik va nafosat, go'zallik ifodasining chuqurlashuvi va takomillashuvi imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu xususiyatlar milliy nasrda salmoqli o'rin tutgan hikoyalarga ham xosdir. Ularda shaxs va davr munosabati, yangi voqelik va inson botiniy olami, orzu-intilishlari hamda murakkab hayot va ruhiyati manzaralari tadqiqi ustuvor xususiyatga aylanayotir. Bunda milliy-adabiy an'analar bilan jahon adabiyotidagi ilg'or

tajribalarning uyg'unlashtirilgan holda falsafiy-psixologik va majoziy obrazlilik talqinga e'tibor kuchaymoqda. Mavzu va badiyat doirasining kengayishi, adiblar mahoratining osha borishi, ijodiy individuallik ko'rinishlarining xilma-xilligi, ijod erkinligining umidbaxsh samaralari-bugungi hikoyachilikdagi sifat o'zgarishlarining asosiy omillaridir. SHuningdek, istiqlol mafkurasi ta'sirida millat kishilari ongi va dunyoqarashida shakllangan yangi tafakkur, o'zlikni anglash, inson sha'ni va nufuzini e'zozlash, teran hayotiy nigoh tuyg'ulari hikoya qahramonlari tasviridagi haqqoniylik va ta'sirchanlik xususiyatlarini yanada boyitdi. Bu ijodiy jarayonda hikoyachilikning yangi jihati uslublar rang-barangligida namoyon bo'lmoqda. Ana shunday rang-baranglikni bugungi adabiy jarayonning faol a'zosi, mohir nosir Isajon Sulton Ijodida ham kuzatamiz. Isajon Sulton ijodining salmoqli qismini hikoya janri egallaydi. Isajon Sulton hikoyalarining bosh qahramoni – eng oliy hilqat Insondir. Isajon Sulton hikoyalarida inson xarakterining tahliliga bag'ishlangan bitiruv malakaviy ishda quyidagi xulosalarga kelindi:

-Isajon Sulton bugungi o'zbek nasrining etakchi vakillaridan biri bo'lib, hikoya, qissa va roman janrlarida samarali ijod qilmoqda. Hikoya Isajon Sulton ijodining salmoqli qismi sanalib, ularda g'arb va sharq prozasining yuksak ideallari va badiiy sintezni ifoda etilganligini kuzatamiz;

- Adib keyingi yillarda juda faol ijod jarayonini olib bormoqda. Uning "Qismat", "Bog'i Eram", "SHamolli kecha" hikoyalari xalqaro miqyoslarda e'tirof etilib, yuksak baholandi. Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazining o'ziga xos tarzda reallik va badiiylik uyg'unligida tasvir etilganini kuzatamiz;

-Isajon Sulton insonlar aro munosabatni jamiki murakkabliklari bilan aks ettirishga urinadi, inson zotiga sirli xilqat sifatida yondoshib, uning taqdiridagi izohlash mushkul bo'lgan chigalliklarni tushunishga urinadi. Uning qahramonlari ko'pincha o'ylovchi, fikrlovchi, ma'nan baland, nozik tuyg'ular egasi bo'lgan insonlar. Adib kitobxon didining yuksakligi, hissiyotlarining ingichkaligi, so'z zalvorini his qilish salohiyatiga ishonadi. Kechinma va tuyg'ularni moddiylashtirish, har bir so'zni joyida qo'llash, holatlarni manzaralantirish, ramz va ishoralar tilida

so‘zlash, chigal o‘ylar-u mubham iztiroblar, beadoq ishtibohlar haqidagi samimiy tasvirlar ana shu ishonchdan oziqlanadi;

- Isajon Sulton barcha asarlarida inson va tabiat bir-biridan ajralmas, ular koinot cheksizliklarida yaxlit va bir butunlikni tashkil etadi. Inson borliqda benihoya nozik a‘zo, nozik hujayralardan bino bo‘lgan. Samoning cheksizligi uni qo‘rqitadi. Qo‘rqinch butun vujudi, hissiyotlari, kechinmalari, fikrlash tarzlarini qamrab oladi. Uni faqat aql va jon muhofaza qiladi. Har qanday balo-qazo, ofatlardan saqlaydi. ”Qo‘riqchi”, “SHamolli kecha”, “Sog‘inch”, “Ozor”, “Farishta”, “Xazinabon”, “Sofiya”, Suvdagi kosa”, “Atomlar muzeyida”, “Qismat”, “Bog‘i Eram hikoyalari”, barcha qissalari va romanlarida inson va to‘fon, qo‘rquv va umid, zarurat va adolat badiiy tasvir makonlariga tortiladi.

-Ruhiyat tasviri badiiy asarning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, inson psixologiyasi va ichki ma‘naviy olamini tadqiq etishga qaratilgan. Shaxs ruhiyati dinamik ravishda ijtimoiy turmush, kishilar munosabatlari taqozosi bilan o‘zgarib, yangilanib boruvchi jarayon. Isajon Sultonning “Qismat”, “Sofiya”, “Farishta” kabi hikoyalarida inson ruhiyatining turfa qirralari talqinlarini uchratamiz. Adib hikoyalarida ruhan yuksalayotgan inson talqin qilinadi.

--Isajon Sulton inson obrazini yaratishda o‘ziga xos mahoratga ega adibdir. U insonning ichki olamini yorqin bo‘yoqlarda, real voqelik va badiiy talqin uyg‘unligida o‘z uslubiga xos tarzda tasvirlaydi;

-Isajon Sulton hikoyalarida SHarq va G‘arb nasrining sintezini kuzatamiz. Adib ijodida inson obrazi talqinlari ota, ona, farzand obrazlari misolida qator hg‘ikoyalar tahlili asnosida o‘rganildi. “O‘rmondagi kulba”, “Otamga nimadir bo‘ldi”, “Manzil” kabi hikoyalarida inson xarakterining turfa chizgilari badiiy talqin etiladi;

- Isajon Sulton falsafiy-hayotiy, ijtimoiy-ma‘naviy dunyoqarashi ancha keng, tafakkurda ilgarilagan adiblardan sanaladi. U o‘zi qalamga olayotgan voqea-hodisalar mohiyatiga chuqur nigoh tashlay oladigina emas, ulkan falsafiy umumlashmalar, axloqiy hukm-xulosalar ham chiqara biladi. Shu bois ham hikoyanavisning an‘anaviylikka murojaat qilishi ham novatorona tus oladi. Uning tasvir uslubida zamondoshlaridan bir qadar farqli jihatlarni ham kuzatish mumkin bo‘ladi.

-Isajon Sulton hikoyalarda tasvirlangan obrazlar o'zlarida davrga xos xususiyatlarni yaqqol nomayon etgani bilan milliy hikoyachiligimizda yangicha yo'nalish yasay oldi. Adibning qator hikoyalari allaqachon kitobxonlar yuragida joy olib ulgurgan. Zero, uning qahramonlari tevarak-atrofimizda yashayotgan yaqinlarimiz, bizga tanish chehralardir. Isajon Sulton bir hikoyasida yoshgina qiz yoki yigit iztiroblarini qalamga olsa, yana birisida ko'pni ko'rgan qariyalar obrazini mohirona gavdalantiradi, boshqa birisida esa bir-biriga umrbod suyanch bo'lib yashagan eru xotin obrazlari kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Adib asarlarida hayotiy-maishiy mavzular, inson ichki olami, botinidagi bir-biriga zid tuyg'ular, ruhiyat tebranishlari, bugungi kun kishisining o'y-xayollari badiiy yo'sinda qiziqarli tasvirlanadi.

- Isajon Sultonning "Bog'i Eram", "Bo'ri" hikoyalarida insonning hayotiy sarguzashtlari, murakkab qalb olami talqini orqali davr ruhi va shaxs ma'naviyati tasvirlanadi. Isajon Sulton ijodida ramzlar asarning shunchaki ta'sirchanligi va ifodaliligini oshirish uchungina emas, balki hikoyalarning g'oyaviy-mazmuniy mundarijasini, ijtimoiy-estetik qimmatini kuchaytirishga ham qaratilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Isajon Sulton Inson xarakterini chuqur anglab tasvirlashda, uning botiniy olamini anglatishda bugungi kunning eng ilg'or adiblaridan biridir. Uning hikoyalarida hozirgi nasrimizda kechayotgan ijodiy izlanishlar o'z ifodasini topmoqda. Bu holatni hikoyalarning mavzu va uslubiy-shakliy jihatdan rang-barangligida, epik bayonning ta'sirchanligi va qahramonlar ichki olamining teran tasvirida ko'ramiz. Bu qahramonlar turli yosh va kasbga mansub bo'lishsa ham ularning qismati Vatan taqdiri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har birining o'z qarashi, individual xususiyatlari, milliy koloritni aks ettiruvchi betakror jihatlari bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Karimov I. Adabiyotga e’tibor-ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2009. 3 iyul.
2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –Toshkent. “Ma’naviyat”, 2008. -176 b.
3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelejagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent. “O‘zbekiston”. 2017. B. 477.
4. Abduqodirov A. Davr, uslub va poetik obraz.//O‘zbek tili va adabiyoti. 1980. № 2. -26-30 b.
5. Adabiyot nazariyasi. I tom.-T.: “Fan”. 1978-B. 53.
6. Boltaboyev H. Istiqlol imkoniyatlari:yangilangan an’analar va postmodernizm.-Toshkent., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2006. 238-bet.
7. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. –T.: “Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1987. 11-bet.
8. Boboev T.Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent. O‘qituvchi, 2001.-556 b.

9. Boltaboev H. Nasr va uslub.-T.Fan 1992. -112 b
10. Doniyorova Sh. Davr va qahramon muammosiga doir.//O‘zbek tili va adabiyoti. 1999. №3.-B. 46-47.
11. Doniyorova Sh. Tarixiy mavzu va adib ma’suliyati //O‘zbek tili va adabiyoti.2002. №5. -B. 45-47.
12. Do‘stmuhammedov X. O‘zbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi(80-yillar avvalgi hikoyalar misolida).
13. Davurboyeva N. “Jajman”ning jilvalari // Yoshlik,1991-yil, 5-son, 43-bet.
14. Do‘stmuhammadov X. Nazarning umidbaxsh kemalari.- Toshkent., Yangi asr avlodi.2004.3-4-betlar.
15. Do‘stmuhammadov X. Iztirob, ijodkor, hayot. 2013.
16. Do‘stmuhammadov X. Beozor qushning qarg‘ishi. T.: 2006. 137-bet
17. Eshonqul N. She’riyat-ko‘ngil pokligi(suhbat)/ O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.2009. 4-sentabr.
18. Eshonqulov N. Shamolni tutib bo‘lmaydi.Qissa va hikoyalar.-T., 2005. 8-9-betlar.
19. Erkin A. Shovqin.-Toshkent. O‘zbekiston”, 2011, 282-285-betlar.
20. Isajon Sulton nasri badiiyati. –Toshkent. “Turon zamin ziyo”, 2017, 380 b.
21. Isajon Sulton. Bog‘i Eram. –Toshkent, “SHarq”, 2015, 242 b.
22. Isajon Sulton. Oydinbuloq. –Toshkent, G‘.G‘ulom nashriyoti, 1995.
23. Isajon Sulton. Ozod.Roman va hikoyalar. –Toshkent, “SHarq”, 2012, 367 b.
24. Hamdamov U. Turfa ranglar uyg‘unligi. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi, 2000.29-sentabr.2-bet.
25. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. -Toshkent: Yangi asr avlodi. 2002. -200 b.
26. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. -Toshkent: Fan. 2007.-196 b.
27. Hamdamov U. Vatan haqida qo‘shiq.-T., “Akademnashr”, 2014. 445-

bet.

28. Karimov N. Mamajonov S va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. -Toshkent. O'qituvchi. 1990. -100 b.

29. Luqmon Bo'rixon. Temir yo'l yoxud titrayotgan tog'. -Toshkent: O'zbekiston. 2009. -264 b.

30. Mamajonov S. Uslub jilolari. -Toshkent. Adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. -219 b.

27. Mirzaev S. Badiiy uslub sehri. -Samarqand. Universitet, -B. 89-90.

28. Mirvaliev S. Nasrimiz badiiy olami. - Toshkent. Adabiyot va san'at. 1991. -232 b.

29. Mirvaliev S. O'zbek romani. -Toshkent, 1969. B. 2-77.

30. Mustaqillik davri adabiyoti. -Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2006. -228 b.

31. Nazarov B. Hayotiylik-bezavol mezon. -Toshkent. Yosh gvardiya, 1985. -222 b

32. Normatov U. Ijod sehri. -Toshkent. Sharq. 2007. -352 b.

33. Normatov U. Talant tarbiyasi. -Toshkent. Yosh gvardiya. 1980. B. -165

34. Normatov U. Yangi asr odamlari.// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2009. 29 may

35. Normatov U. Erkin ijod imkoniyatlari (davra suhbat) //O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2003. 28 avgust.

36. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2000. B. 47.

37. Nazarov B, Tenlashov M. Qismatga qastma-qast. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, 1989. 28-aprel. 4-bet.

38. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. Toshkent. Ma'naviyat. 2000. B. 71-72.

39. Normatov U. Kichik janrlarning katta imkoniyatlar.

40. Rasulov A. Badiiylik – eskirmaydigan yangilik. //Jahon adabiyoti. 2001. № 8. B 157-163.
41. Rahimjonov N. Mustaqillik davri adabiyotining asosiy xususiyatlari haqida// O‘zbek tili va adabiyoti. -Toshkent, 2006. № 4 -10-15 b.
42. Rahimjonov N. Mustaqillik davri she’riyati yetakchi xususiyatlari. O‘zbek tili va adabiyoti.2001.B.10.r.
43. Sattorova G. Milliy xarakter va badiiy talqin. -Toshkent: Fan, 2007.- 119 b.
44. Sodiqov S. Ijodning o‘ttiz lahzasi. -Toshkent. Sharq. -2005.-320 b.
45. Salomat Vafo.O‘zini izlayotgan ayol. -Toshkent. “Kamalak”, 1991.- 112 b
46. Zulfiya Qurolboy qizi. Yovuzlik farishtasi. -Toshkent: Yangi asr avlodi. 2005. -260 b.
47. Umarov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi.-T.: “Fan”.1983.-B. 17-18
48. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. -Toshkent. Sharq. 2002.- 254 b.
49. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti. Maqolalar toplami.-T., “Mumtoz so‘z”, 2012. 18-19-betlar.
50. Yoqubov I. Hozirgi adabiy jarayon. -Toshkent: Universitet.2005.-182 b.
51. Yoqubov I. O‘zbek romani tadriji. -Toshkent: Fan va texnologiya. 2006. -164 b.
52. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –Toshkent. Yangi asr avlodi, 2006. -778 b.
53. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Adabiy o‘ylar.-Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2006.15-bet.
54. Yo‘ldoshev H. “Diyonat” romonida ichki monolog// O‘zbek tili va adabiyoti.1982. B.37.
55. Yoqubov I.Hozirgi adabiy jarayon.- T.: Universitet. 2005.-182-b
56. Yo‘ldoshev Q. Azobda toblangan odamlar tasviri. “Yangi asr avlodi”.2009. 3-bet.

57. G'afurov I. Mangu latofat. -Toshkent: Sharq. 2008. -464 b.
58. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti.-Toshkent: Sharq. 2004.-640 b.
59. XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi.-Toshkent. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi". 2009.-617 b.
60. www.ziynet.uz
61. www.adabiyot.uz
62. www.google.uz
63. www.literatura.ru

MUNDARIJA:

KIRISH. Mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari.....3-

I BOB. HOZIRGI O'ZBEK NASRIDA ISAJON SULTONNING O'RNI

1.1. Hikoya - Isajon Sulton ijodida yetakchi janr sifatida.....

1.2. Adib hikoyalarida inson ruhiyati tasvirining turfa chizgilari.....

II BOB. ISAJON SULTONNING INSON OBRAZINI YARATISHDAGI MAHORATI

2.1. Isajon Sulton hikoyalarida inson obrazi talqinlarining o'ziga xosligi (ota, ona, farzand obrazlari tahlili misolida).....

2.2. Adibning hikoyalarda ramziy obrazlar orqali inson xarakterini tasvirlash mahorati.....

